

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
IPAK YO'LI INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI**

MIRXALILOVA NARGIZA AKBAROVNA

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QISH
DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI**

(uslubiy qo'llanma)

- O'qish darslarining ilmiy-nazariy asoslari
- Milliy pedagogikamizda o'qish darslarining tashkil qilinishi
 - O'qish darslarining maqsadi va vazifalari
- Hozirgi zamon o'qish darslariga qo'yiladigan talablar
 - O'qish darslarida qo'llanadigan metodlar
 - O'qish malakalari
 - O'qish darsida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullari
- O'qish darsida uchraydigan asosiy muammo va kamchiliklar
- O'qish darslarini samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar

Olmaliq – 2024

N.A.Mirxalilova, Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish darslarining samaradorligini oshirish usullarini tajribada qo'llash bo'yicha uslubiy qo'llanma. Olmaliq, IYIU, 2023 yil.

Mazkur uslubiy qo'llanmada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish darslarining samaradorligini oshirish usullari, o'qish darslarining ilmiy-nazariy asoslari, milliy pedagogikamizda o'qish darslarining tashkil qilinishi, o'qish darslarining maqsadi va vazifalari, hozirgi zamon o'qish darslariga qo'yiladigan talablar, o'qish darslarida qo'llanadigan metodlar, o'qish malakalari, o'qish darsida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullari, o'qish darsida uchraydigan asosiy muammo va kamchiliklar, o'qish darslarini samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar hamda mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar haqida so'z boradi.

Qo'llanma umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari va pedagogik ta'lim muassasalari bakavriyat talabalari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

T.Mirzakulov

Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti,
Filologiya fanlari doktori, professor

T.Narimbetov

TDTU olmaliq filiali,
Psixologiya fanlari doktori, dotsent

Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti o'quv-uslubiy kengashi qaroriga asosan uslubiy qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyoti, uning jahon hamjamiyatida mustahkam mavqega ega bo'lishi iqtisodiyot, fan va texnikaning rivojlanishi bevosita milliy ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga bog'liq. Shuning uchun ham „2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi“ da xalq ta'limi oldiga zamonaviy milliy ta'lim tarbiya tizimini yaratish uchun zarur bo'lgan bir qator muhim vazifalar qo'yilgan. Shu asosda ta'lim sohasida juda katta islohatlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, „Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz“.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda o'quvchilarni doimiy tarzda kitob bilan hamroh qilish, unga qiziqtirish kabi masalalar o'qituvchining zimmasida turadi.

Xo'sh, bunga qanday erishish mumkin?

Bu mavzuni ilmiy jihatdan o'rganish hozirgi zamonning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bolalarni savodxon qilib yetishtirish, dunyoqarashlarini zamon talablariga mos ravishda shakllantirish, tez va to'g'ri, ongli va ifodali o'qishga o'rgatish hamda o'quvchilarni o'qish savodxonligini oshirish boshlang'ich sinf o'qish darslarining oldida turgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

PIRLS (PROGRESS IN INTERNATIONAL READING LITERACY STUDY) – xalqaro tadqiqot dasturining boshlang'ich sinflarning o'qish faniga tegishli ekanini hisobga olsak, ta'limda o'qish fanining o'rni yuqori o'ringa egaligini ko'rsatib turibdi. Har besh yilda bir marta o'tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqot dasturida dunyoning 41 tadan ziyod eng rivojlangan mamlakatlari o'quvchilari ishtirok etadi. PIRLS – matni o'qish va tushunish savodxonligi sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturida 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi tekshiriladi. O'qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab

qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish hamda amaliyotga qo'llay olish qobiliyatidir. Mana shunday xalqaro tekshiruvda yaxshi natijalarni egallash uchun boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining sifatini yanada oshirish, turli metodlarni o'z o'rnida qo'llay olish malakasiga har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi ega bo'lishi lozim.

Yosh avlodning ma'naviy kamolotiga katta e'tibor qaratish, ularda milliy, umuminsoniy qadriyatlarga e'tiqod, yuksak vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish vazifalari boshlang'ich ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Undagi ona tili va o'qish ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgaralar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma tarzda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqatda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili va ayniqsa, o'qish ta'limiga o'quv fani emas balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Jamiyatimiz istiqbolda qanday bo'lishi va unda avlodlarimiz qanday yashashi har tomonlama farzandlarimizning tarbiyasi va ta'limiga bog'liq.

Poydevori soz qo'yilsa,
Bo'lar bino mustahkam.
Yengil-yelpi qo'l urilsa,
Qular marmar bino ham.
Demak, bizda jamiyatning,
Kelajagi – iqboli,
Bizning qo'limizdadir,
Istiqlol poydevori.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarni tez va to'g'ri, ongli va ifodali o'qishga o'rgatish qanchalik mukammal bo'lsa, o'quvchilarning dunyoqarashi, kitobxonlikka bo'lgan muhabbati shunchalik yuqori bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda olingan bilim – ilk bilimlar poydevoridir. Ayniqsa, savod o'rgatish davrida o'qituvchi o'quvchilarga o'qishga nisbatan onglilik, to'g'rilik va

ifodalilik munosabatda bo'lib o'qish hislarini mukammal darajada shakllantirishga katta e'tibor qaratishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi yosh avlodni tarbiyalash yo'nalishlari belgilangan. Boshlang'ich ta'limda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi boshlang'ich sinf o'qish darslarida amalga oshiriladi. O'qish darslarida o'quvchilarga bilim berish bilan birga ulardagi insoniy hislarni rivojlantirib boriladi. Bularning hammasi bola shaxsining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarni tez va to'g'ri, ongli va ifodali o'qishga o'rgatishda, berilgan matnlarning tarbiyaviy ahamiyatini yoritishda o'qituvchi o'qish darsi uchun mo'ljallangan metodlarni to'g'ri tanlay bilishi lozim.



I BOB. O'QISH DARSLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Milliy pedagogikamizda o'qish darslarining tashkil qilishning o'rganilishi

O'qish jarayoni – ta'lim-tarbiya muassasasi sharoitida muallimning rahbarligi ostida amalga oshadigan o'quv jarayonidir. Yaqin va O'rta Sharqda Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom kabi mutafakkirlar ilmiy o'qitish, o'rganishga asos soldi. Ular va ularning izdoshlari qarashlarning muhim xususiyati shundan iborat ediki, mazkur olimlar doimo predmetning qiyofasi inson ongida mavhumlashuv jarayoniga, mana shu predmetning mohiyati va o'ziga xosligini tushinish sodir bo'lishi hamda shakllanishiga e'tibor berganlar. Ular bilishning predmeti va manbalariga, bilish jarayoni qanday bosqichlardan tarkib topishiga, bilish faoliyati bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi munosabatlarga qiziqqanlar.

O'qish darslarini tashkil qilish, ularni amaliyotga joriy etish hamda qo'llanilishida XX asr boshlarida bir qancha mutaffakirlarimizning hissalariga katta bo'lgan.

Abdulla Avloniy o'zining barcha tadqiqotlarida ilm muammosini birinchi o'ringa qo'ygan. „Alhosil, - deb yozgan edi u, – butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, savlatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilm bilan bog'liqdur... Shuning uchun o'qimak, bilmak zamonlarini qo'ldan bermay, vujudimizning dushmani bo'lgan jaholatdan qutulmakka jonimiz boricha sa'y qilmagimiz lozimdir”.

Abdulla Avloniy (1878-1934) Ilm – tarbiya jarayonida o'zlashtiriladi, u yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, joizni nojoizdan farqlash imkonini beradi, deb hisoblaydi.

Abdulla Avloniy o'qish va o'qitish usuliga isloh kiritib, yangi tipdagi maktab tashkil etgan, yosh o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, sharq va g'arb tillarini o'rgatish kabi muhim ishlarni amalga oshirgan

Abdulla Avloniy „Jamiyati xayriya“ tashkil etib, yetim bolalarni o'qitgan. Bu bilan bolalarga bepul kiyim-bosh, oziq-ovqat, daftar, qalam berilishini ta'minlaydi. U maktablar uchun qo'llanma va o'qish kitoblar yozib, nashr qildirgan. Avloniy „Birinchi muallim“ („Muallima avval“, 1909),

„Ikkinchi muallim“ („Muallimi soniy“, 1912) nomli darsliklarni boshlang'ich sinflar uchun yaratgan. U bolalarni savodini tezda chiqarishga harakat qildi.

„Birinchi muallim“ – „Alifbe“, „Ikkinchi muallim“ – „O'qish“ kitoblari hisoblangan. „Birinchi muallim“da Avloniy dastavval 32 harfni yolg'iz yoziladigan shakllarini bir sahifa alifbo tartibida bergan. „Ikkinchi muallim“da axloq-odobga doir, halollik va poklikka oid turli she'rlar, hikoya, masal va ertaklar jamlangan, rang-barang allegorik qiyofalardan ustalik bilan foydalangan.

Avloniy „Maktab gulistoni“, „Turkiy guliston yoxud axloq“ kabi darsliklar bilan hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyotiga poydevor qo'ygan.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) 1-sinf uchun „Yengil adabiyot“, 2-sinf uchun „O'qish kitobi“ va „Qiroat kitobi“ kabi darsliklar yozgan. Ammo mazkur darsliklar qo'lyozmaligicha qolib ketgan. O'sha paytda nashr etish imkoni bo'lmagan.

Hamza o'z tadqiqotlarida tovushli savod o'rgatish metodini ishlab chiqqan. Uning tadqiqotidagi asosiy g'oya o'qitish tarbiyalashga kompleks yondashish, yoshlarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasini o'zaro bog'liq holda amalga oshirishdan iborat edi.

Hamza ham „Yordam jamiyati“ tashkil qilib, mehnatkash xalq ommasi bolalarini shu jamiyat orqali o'quv-qurollar, kiyim-kechak va boshqa narsalar bilan ta'minlab turdi.

Hamzaning „Yengil adabiyot“ga kiritgan she'rlaridagi bosh qahramonlarning belgisi xususiyatlaridan biri – to'g'riso'zlikdir...

„O'qish kitobi“ Hamzaning ikkinchi darsligidir. Unda 9 ta dars bo'lib, ularning har biri axloqiy masalaga bag'shlangan. Barcha hikoyalarning qahramoni ijobiy fazilatlarni o'zida mujassamlantirgan maktab o'quvchisidir. „O'qish kitobi“dagi bir necha she'rlar o'qish, ilm olish, maktab hamda kitobning tavsifiga bag'ishlanadi.

Hamza 1925-yilda „2-sinf uchun qiroat kitobi“ darsligini yozdi. Bu kitob g'oyaviy mavzusi jihatidan Alisher Navoiyning „Hayrat ul-abror“ asariga yaqin turadi. Kitob bolalar ruhiga mos bo'lib, nasriy yo'l bilan yozilgan.

Sadriddin Said-Murodzoda Ayniy (1878-1954) Buxoroda yangi uslubdagi maktablar ochadi, ular uchun o'quv qo'llanmalar, xalqni ilm-ma'rifatga chaqiruvchi she'r va hikoyalardan iborat „Tahsib us-siyobon” – yoshlar tarbiyasi” (1909) darsligini tuzadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) o'z faoliyati davomida Qozon va Ufaga borib, u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo'lga qo'yadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Behbudiy boshlang'ich sinflar uchun „Risolai asbobi savod` („Savod chiqarish kitobi”, 1904) darsligini yaratadi va chop ettiradi. So'ngra „Risolai jug'rofiyai umroniy” („Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), „Muntaxabi jug'rofiyai umumiy” („Qisqacha umumiy geografiya”), „Kitobat ulatfol” („Bolalar xati”), „Amaliyoti islom”, „Tarixi islom” kabi darsliklarni yozib chop ettiradi.

Munavvarqori Abdurashidxonov 1901-yilda Toshkentda birinchilardan bo'lib „Usuli jadid` maktabi ochadi. Bu maktablar uchun „Adibi avval”, „Adibi soniy” kabi alifbo va xrestamatiyalar, „Tavjid al-Qur'on” („Qur'on qiroati”), „Yer yuzi” („Geografiya”) singari qo'llanmalar tuzib nashr etadi. Bu darsliklar 1901-1917-yillar oralig'ida eng kam 2-3, ko'pi 9-10 martagacha alohida-alohida holda nashr etilgan. „Adibi avval”, „Adibi soniy” kitoblar darslik majmua yo'sinida yozilgan bo'lib, ko'plab she'riy va nasriy hikoyalarni o'z ichiga olgan. Har birining so'ngida „hissa” – xulosa chiqarilgan.

Abduqodir Shakuriy (1875-1943) U 1901-yil kuzda 1- yangi usuldagi maktabni tashkil qiladi. Shakuriy o'z maktabi uchun darsliklar yozib, ularni o'z mablag'i hisobidan nashr qildirgan. Uning „Rahnamoyi savod” („Savod chiqarish qo'llanmasi”) deb atalgan kitobi shu tariqa chop etilgan. U yana „Jomi'ul-hikoyat”, „Zubdat ul-ash'or” kabi o'quv qo'llanmalarini yaratgan.

Hozir boshlang'ich sinf o'qish darslari birmuncha takomillashgan. 1-sinfning birinchi yarmida “Alifbe” darsligidan o'quvchilar savod chiqaradilar, ikkinchi yarmidan boshlab ilk marotaba “O'qish” darsligi bilan yuzlashadilar. 2-3-4-sinflar uchun ham alohida, o'quvchilarning bilim saviyasiga qarab “O'qish ”

darsliklari yaratilgan. Zamonaviy olimlardan S. Matjon, X. G'ulomova, T.G'afforova, Sh. Nurillayeva, A. Shojalilov, Sh. Sariyev, Z. Dolimov, M. Umarova, O. Sharafiddinov, Q. Abdullayeva va boshqalar o'qish darslarini tashkil qilish hamda amalda tatbiq etishda katta hissa qo'shganlar. Bu olimlarimiz o'quvchilar tafakkurining o'sishi va rivojlanishini, psixologiyasini mukammal hisobga olgan holda sinflar kesimida "O'qish" darsliklarini yaratishgan.

Ushbu "O'qish" darsliklarida 1-sinf uchun 70 soat, 2-3-4-sinflar uchun 102 soat ajratilgan. Har bir sinf "O'qish" darsliklari "Ona yurtim – oltin beshigim", "Maktabim – qutlug' makonim", "Kitobim – oftobim", "Oltin kuz – hosiling yuz", "Mehnat baxt keltirar", "Kumush qish – misoli oqqush", "Otalar so'zi – aqlning ko'zi", "Zumrad bahor – bahri-diling ochar", "Qushlar, hayvonlar – bizning do'stimiz", "Ertaklar – yaxshilikka yetaklar", "Tabiatni asrang, avaylang", "Yoz – o'tadi soz!" kabi turli bo'limlarga bo'linadi. (Bu bo'limlar sinflar kesimida ayrim hollarda o'zgarishi mumkin)

Olimlarimiz "O'qish" darsliklari sahifalariga bolalar adabiyotining eng mashhur namoyondalari ijodidan she'rlar, hikoyalar, ertaklar, buyuk mutafakkirlarimiz asarlaridan ibratomuz parchalar, xalq og'zaki ijodidan namunalarni mohirlik bilan joylashtirganlar.

Hozirda olimlarimiz zamon talablaridan kelib chiqqan holda multimedia ilovalarini har bir sinflar kesimi uchun yaratib, darslarda foydalanishni tavsiya etmoqdalar.

Har bir sinfga o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar nashrdan chiqarilgan bo'lib, o'qish darslarining samarali o'tilishiga yordam bermoqda. Metodik qo'llanmalar darsliklarning o'zgarishiga qarab o'zgartirilmoqda.

1.2. O'qish darslarining maqsadi va vazifalari.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsadi va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki, uning zaminida

savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushinib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochadi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda „O'qish kitobi“ darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich sinf „O'qish kitobi“ darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqloq va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqloq, Vatan, ma'naviyat va tabiat

haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlol, Vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir.

Vatanparvarlik, atrofimizdagi olam va mehnatsevarlik kabi mavzular o'qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo'lib, turli janrlardagi asarlar misolida atroflicha tahlilga tortiladi.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o'tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug' siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to'g'risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar o'quvchilarni faqat o'tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas'uliyatini teran anglashga ham yordam beradi, ularda Vatanga muhabbat tuyg'usi shu tariqa shakllanadi. Vatanimiz o'tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladilar, jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo'lsa-da, tushuncha hosil qiladilar.

Tabiatga oid mavzular o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Bunday mavzudagi asarlar o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag'riga sayohat uyishtirib, bolalar kuzatuvchanlikka o'rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi.

Umuman, „O'qish kitobi“ darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to'g'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi.

Amaldagi „O'qish kitobi“ darsliklarida materiallarning sinfdan-sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan. Masalan, 1-sinfda o'rgatiladigan har bir bo'limdagi mavzular 2-4-sinflarda

ham davom ettirilgan. Bu esa o'quvchilarning oldingi bilimlarni to'ldiradi va boyitadi.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-axloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi.

Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligi, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardan biri

Boshlang'ich ta'lim bo'yicha DTS va „Ona tili“ o'quv dasturida o'qish ta'limi oldiga qo'yilgan talablarni amalga oshirish sinfda o'qishni to'g'ri tashkil qilish, o'qitish bosqichlari, tamoyillari va metodlari, birinchi navbatda, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarni shakllantirish;
2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxonga aylantirish;
3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish, boyitish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish;
4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash;
5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish;

6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish;
7. Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfda o'qish mashg'ulotlarida hal qilinadi.

1.3. Hozirgi zamonda o'qish darslariga qo'yiladigan talablar.

Ta'lim davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylangach, boshlang'ich ta'lim rivojiga alohida e'tibor qaratildi. Davlat ta'lim standartlari va uzviylashtirilgan o'quv dasturlari ishlab chiqildi. Darsliklarning yangi avlodini yaratishda samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz kelajagi bugun maktablarda ta'lim-tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishishlariga bog'liq. Bu mas'uliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ta'lim beruvchilardan o'z kasbiy mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, fanlarning negizi hisoblangan o'qish darslarini alohida mas'uliyat bilan olib borishlari lozim. Chunki, hozirgi zamon talablari ta'limdagi barcha fanlarga nisbatan ancha yuqori.

Hozirgi zamonda o'qish darslari uchun quyidagi talablar qo'yilmoqda:

1. O'qish ta'limi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash;
2. Ilg'or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlarini mohirona foydalanish;
3. Har bir darsda ko'rgazmalar, tarqatmalardan foydalanish;
4. Multimediyadan o'z o'rnida, to'g'ri foydalanish;
5. AKTni kerakli ma'lum vaqtda ishlatish yoki darsni to'liq holda qamrab olish;
6. O'quvchilarning fikr doirasini kengaytirish;

7. O'quvchilarni berilgan matn mazmunidan kelib chiqqan holda ongi, dunyoqarashlarini o'stirish;
8. O'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan erkin ishtirokchiga aylantirish;
9. O'quvchilarni oddiy kitobxon darajasidan chuqur mulohazali insonga aylantirish, toki ular o'qigan kitoblarini atroflicha tahlil qila olsinlar;
10. O'qilgan hikoya, ertak, qissa, she'r, masal, ilmiy matnlar, xalq og'zaki ijodi namunalari va boshqalarni hayotga tatbiq eta olish;
11. Tanqidiy fikrlay olishni to'g'ri yo'lga qo'yish;
12. O'qish darslarida DTS talablarini bajarish;
13. O'qituvchi o'qish darslarida vaqti-vaqti bilan innovatsion yangiliklar kiritib turish;
14. Interfaol metodlarni to'g'ri qo'llay olish;
15. O'quvchilarning o'qish malakalari: tez va to'g'ri o'qish, ongli va ifodali o'qishni rivojlantirish;
16. O'quvchilarni Vatanga muhabbat, insonparvarlik. mehnatsevarlik, o'z-o'zini tarbiyalash, o'zgalarga hurmat, o'zaro ishonch, do'stlik, sadoqat, mehr-oqibat va boshqa his-tuyg'ularini rivojlantirish;
17. O'quvchilarning yaratuvchanlik, musiqa, kitobxonlik, jismoniy tayyorgarlik va boshqa iste'dod, qobiliyatlarini o'qituvchi dars davomida erta ilg'ay olishi hamda turli to'garaklarga jalb etish;
18. O'qish darslarida o'qituvchi o'quvchilarni turli xil matnlar orqali san'at qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish;
19. O'qish darslarini muzeylarga, tabiat qo'yniga sayohat va ekskursiyalar orqali tashkil etish;
20. O'qish darsining barcha bosqichini bir-biriga uzviy bog'langan holda vaqtdan unumli foydalangan holda o'tish;
21. O'qituvchi o'quvchilarni axloqiy-estetik jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash;
22. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy estetik tafakkurini o'stirish;

23. O'qish darslarida o'quvchilarning nutqi va lug'at boyligini o'stirish.

Hozirgi zamon talablari judayam yuqori, bu talablarni boshlang'ich sinf o'qituvchisi bajarishi, xalq hamda o'quvchilarning mehrini qozonishi uchun o'z ustida tinmay ishlashi, izlanishi lozim.



II BOB. O'QISH DARSLARI O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA.

2.1. O'qish darslarida qo'llaniladigan metodlar.

Ma'lumki, ta'lim olish (ma'lumot olish) jarayoni – bu ma'naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchlarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta'lim oluvchining o'zi orqali yoki boshqa birov orqali yoki ta'lim beruvchining ko'magida amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim olish jarayoni turli xil metodlarga tayangan holda kechadi.

Metod – grekcha „metodos“ so'zidan olingan bo'lib, „izlanish yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot“ ma'nosini anglatadi.

Ta'lim metodini (usulini) – ta'lim oluvchi va beruvchining ma'lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga va tartibga solingan yo'l-yo'rig'i sifatida ta'riflash mumkin.

| N | Metodlarning maqsad va vazifalari |
|---|---|
| 1 | O'quvchilarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatish |
| 2 | Muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy topshiriqlar asosida yechish |
| 3 | O'z-o'zini fikrlashga majbur etish |
| 4 | Do'stona munosabatlarni shakllantirish |
| 5 | Faollashtirish |
| 6 | O'quvchilarni tashkilotchilik va yo'naltiruvchanlikka undash |

„Ta'lim to'g'risida“gi qonunda ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan.

Ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi, lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini

o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

O'qish darslarining samaradorligi ilmiy jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanilishiga bog'liq. Binobarin, fanning o'zi kabi o'qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo'ladi. Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodi asosida o'rgatilgan bo'lsa, hozir izohli o'qish metodi asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, ma'nosini tushintirishga, o'qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuz, qiroat bilan o'qish, ifodali o'qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, demak quyidagicha savol tug'iladi: **Izohli o'qish nima?**

Izohli o'qishga XIX asrning 60-70-yillarida rus pedagogi K.D.Ushinskiy asos solgan, u o'qishda o'quvchilarni „ongli, tushunib, o'ylab o'qishga“ o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni „Izohli o'qish“ deb nomlaydi.

Izohli o'qish metodiga K.D.Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o'qish o'quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o'quvchilarga o'qish jarayonida bilim badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy harakteri bilan bog'liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Professor Asqar Zunnunov o'qitishning mazmuni va usullari haqida fikr yuritib, o'quvchilarning oldin bilimlarni o'zlashtirishga, so'ng yod olishlariga e'tibor berilishi ta'lim jarayonida izohli o'qish deb nomlanganini ta'kidlaydi.

Demak, izohli o'qish deb o'ylashga, his qilishga, asarni to'liq idrok qilishga, o'qilganning mazmunini o'zlashtirishga olib keladigan o'qishga aytiladi. Izohli o'qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g'oyani anglashni ta'minlaydi.

Izohli o'qish quyidagi tamoyillarga to'liq amal qilingandagina muvaffaqiyatli bo'ladi:

1. O'qishni hayot bilan bog'liq holda tashkil etish.
2. O'qishning ongli va ta'sirchan bo'lishi uchun o'quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlariga asoslanish.
3. O'qishni ko'rgazmali tashkil etish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o'simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o'quvchuning ifodali o'qishi tarzida olib borish.

Boshlang'ich o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar hamda ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har janrga mos asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqazo qilinadi.

Badiiy asarni izohli o'qishga yaqin bo'lgan metodlardan biri *ijodiy o'qish*dir. Atoqli metodist olim N.I.Kudryashov ijodiy o'qish metodi tarkibiga quyidagi ish usullarini kiritadi:

- o'qituvchilarning badiiy matnni sharhlab o'qishi hamda o'quvchilarning asarni to'g'ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emotsional idrok etishlarini ta'minlash maqsadini ko'zda tutuvchi so'zi;
- o'qilgan asardan o'quvchilarning bevosita olingan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadiga ega bo'lgan va ularning diqqatini matnning muhim g'oyaviy va badiiy xususiyatlari sari yo'naltiradigan suhbat uyushtirish yoki o'qilgan asardan kelib chiqadigan badiiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammoning qo'yilishi;
- o'qituvchining asar o'qilgandan keyin o'quvchilarni asarni tadqiq etish jarayonida tug'ilgan badiiy kechinmalarni faollashtirish maqsadini ko'zda tutuvchi so'zdir.

Ko'rinadiki, ijodiy o'qish izohli o'qishdan farqli o'laroq, to'g'ridan-to'g'ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Masalan, 4-sinfda A.Oripovning „Dehqon bobo va o'n uch bolakay qissasi“ asarini ijodiy o'qish metodi asosida o'rganish jarayonida matn mazmuni va shoir g'oyaviy niyatidan

kelib chiqib Vatanimiz hududlaridagi aholining yashash tarzi bilan bog'liq milliy xususiyatlari haqida ham atroflicha tushuncha beriladi. 2-sinfda „O'tinchi yigit“, 3-sinfda O'tkir Hoshimovning „Xazonchinak“, 4-sinfda S.Anorboyevning „Qo'rqqoq“ asarlarini ham ijodiy o'qish metodi asosida o'qitish ijobiy samara beradi.

Ifodali o'qish. Boshlang'ch ta'lim tizimida **mantiqiy o'qish** (matni to'g'ri, tushunib, tez (me'yorida) o'qish) va **adabiy o'qish** mukammal o'zlashtirilgandan so'ng ifodali o'qishga o'tiladi. U yod olingan she'riy asarlarni ifodali o'qishni o'z ichiga oladi. Ifodali o'qishning muvaffaqiyati o'quvchilarning asar mazmuni, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo'lishi bilan bog'liq.

Ohang va intonatsiya she'riy asarlarni ifodali o'qishda qay darajada muhim bo'lsa, nasriy asarlarni o'qishda ham muhim talablardan biridir.

Nasriy asarlarni ifodali o'qishdan oldin unda qanday g'oya ilgari surilayotganini aniqlash zarur. Masalan, 4-sinfda X.To'xtaboyevning „Xatosini tushungan bola“ hikoyasini ifodali o'qishdan oldin o'quvchilarga xatosini tushungan bola kim ekanligi, uning xatosi nimalardan iborat bo'lganligi, maqtanchoqlikning illat ekanligi to'g'risida tushuncha beriladi.

Ifodali o'qish oldiga qo'yilayotgan bu talab M.Abdurashidxonovning „Har kim ekanini o'rar“, Sh.Sa'dullaning „Laqma it“, A.Oripovning „Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi“ kabi she'riy hikoyalarni o'qishga ham xosdir.

Badiiy o'qish. Badiiy o'qish ifodali o'qishning yuksak bosqichi hisoblanadi. Unda so'z san'atining barcha komponentlari ishtirok etadi. U o'quvchidan asar ruhiga batamom kirishni, san'atkorona o'qishni talab etadi. Badiiy o'qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to'la anglab yetilgandagina ta'sirchanlikka erishish mumkin. Badiiy o'qishga tayyorgarlik ko'rishdaaktyorlarning audio-video tasmlarga yozilgan ijrolaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Badiiy o'qishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan biri **tanlab o'qish**dir. Tanlab o'qishda bolalarning bahslashish epizodi yuzasidan o'qituvchi topshirig'iga ko'ra belgilangan o'rinlarni tanlab qayta o'qilishi natijasida ushbu asarlarning badiiy-estetik qimmatini chuqurroq o'zlashtirishga erishiladi.

Izlanish metodi. Bu metod asardagi voqea va tafsilotlar asosida o'quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo'llaniladigan usuldur.

O'qish darslarida **reproduktiv metod** keng qo'llaniladi. Masalan, o'qituvchi dastlabki darslarda o'zi asar matnini qismlarga bo'ladi, yozuvchi yoki shoirning aytmoqchi bo'lgan muhim fikriga o'quvchilar diqqatini jalb etadi, uni aniqlab ko'rsatadi, o'quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma'noni ochib, o'quvchilarga ko'maklashadi. Bularning bari o'quvchilar uchun bir ko'rsatma vazifasini o'taydi. Shundan so'ng o'quvchilar o'qituvchining ko'rsatmalari yordamida yuqoridagi vazifalarni mustaqil ravishda bajaradilar.

Yuqoridagi ta'kidlangan metodlardan tashqari, boshlang'ich sinf o'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan „Aqliy hujum“, „Tarmoqlash“, „Guruhlar bilan ishlash“, „Blits texnologiyasi“, kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qo'llash o'qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak.

O'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu DTSda belgilangan bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki, o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina, o'qitish muvaffaqiyatli kechdi, deb hisoblasa bo'ladi.

O'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'ldir. Unga quyidagi muayyan talablar qo'yiladi:

1. O'quv materiali o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li, fikrlashning dialektik-materialistik usuli, mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtayi nazardan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.

2. O'qish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalar hal qilib bo'lmasligini ko'ra oladi.


3. O'qitishning tizimliliigi uning samaradorligini belgilaydi.

4. O'qitish metodining tushunarliliigi: o'qitishning yo'li o'quvchi uchun qabul qilinishi va qo'llanilishi, o'quv materialining o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaliligi va asosliligi.

7. O'qitish metodini nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi.



O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha oddiy bo'lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Bu belgi bo'yicha metodlar uch guruhga bo'linadi:


1. Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z bilan bayon qilish, suhbat, darslik, ma'lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash)

2. Ko'rsatmali metod (rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar)
3. Amaliy metodlar (mashqlar va laboratoriya, amaliy ishlar)

Yuqorida metodlar umumiy fanlar jihatidan tasniflangan bo'lib, o'qish darslari uchun ommabop, eng ko'p tarqalgan metodlar bilan quyida tanishib chiqamiz.

„Tarmoqlash” (Klaster) metodi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar, fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. „Klaster” metodi aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tarmoqlash g'oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan „Klaster” metodi puxta o'ylangan shakl bo'lib, undan ta'lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.



„Aqliy hujum” metodi. Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarining muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. „Aqliy hujum” metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum

qadriyatlarni aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

„Har kim har kimga o'rgatadi” metodi. Bu metod katta matni oz vaqt ichida o'rganish imkonini beradi. Buning uchun matn mayda bo'laklarga bo'linib, o'quvchilarga tarqatiladi. O'quvchilar berilgan bo'lakdagi matni o'qib, tushunib, keyin boshqalarga gapirib berishlari kerak. Bunda o'quvchilar faqat juftliklarda ishlashlari lozim. Ya'ni bir bola o'ziga berilgan matni o'qib, keyin boshqalarga so'zlaydilar. Shu tarzda matn mazmuni o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladi.

„Qor uyumi” metodi. Sinf o'quvchilari doira hosil qilib o'tkaziladi. Har bir o'quvchiga o'tilgan mavzu yuzasidan tarqatmalar yoki rasmlar tarqatiladi. Birinchi o'quvchi rasm nomini aytadi, navbatdagi o'quvchi o'zidan oldingi o'rtog'i aytgan so'zni takrorlab, so'ngra o'zining rasmidagi nomini aytadi. Shunday qilib eng oxirgi o'quvchi barcha aytilgan so'zlarni takrorlab, o'zining rasmidagi nomni qo'shib yakunlaydi. Masalan: ruchka+qalam+daftar+kitob va boshqalar.

„Tushunchalar tahlili” metodi. Bu metodning maqsadi o'quvchilarning darsda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, sinfdoshlarning fikrlariga hurmat bilan qarash, o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatadi. Masalan: o'quvchilarga o'rganilgan so'zlarni rasmi beriladi, o'quvchilar ularning nomini yozadilar yoki aksincha so'zlar beriladi, o'quvchilar rasm chizadilar.

„Venn diagrammasi” metodi. Ikkita bir-biri bilan kesishgan doiralar ko'rinishidagi sxema, faktlar, hodisalar, g'oyalar, adabiy va tarixiy qahramonlarni taqqoslash uchun qo'llaniladi. Aylanma diagrammada har bir doiradagi bo'sh joylar tafovutlarini yozish uchun qo'llaniladi. Doiralar kesishganda hosil bo'lgan umumiy maydon ikki solishtirilayotgan hodisalarning (faktlar, tushunchalar, qahramonlar va boshqalar) umumiy jihatlarini qayd qilish

uchun foydalaniladi, ham individual, ham guruh bo'lib ishlash uchun qo'llaniladi.

„Sinkveyn” metodi. „Sinkveyn” so'zi beshlik degan ma'noni anglatadi, ba'zan „oq she'r – qofiyasiz she'r deb ham nomlanadi. Biror so'zning 5 ta sifat xususiyati tavsiflanishi zarur. O'quvchilarga mavzuning kalit so'zlari beriladi. Har bir o'quvchi alohida qog'oz varag'iga ushbu so'zning xususiyatini yozadi. Ular shaxs va narsa nomi, belgisi, harakatini bildirgan so'zlar ham bo'lishi, shuningdek, ijobiy yoki salbiy jihatini aks ettirishi mumkin.

Har bir qatorga yozilgan so'zlar bitta gap hisoblanib, u keng ma'noni o'ziga qamrab oladi.

Natijada berilgan so'zning ma'nosi 5 qatorda ochib beriladi va o'quvchilar to'liq ma'lumotga ega bo'ladilar, ma'nodosh so'zlar o'rganiladi hamda „Ona tili” fani bilan o'zaro bog'liqligi ta'minlanadi.

„BBB” metodi. Yozuv taxtasi 3 qismga ajratiladi. Birinchi ustunga – „Bilaman”, ikkinchisiga – „Bilib oldim”, uchinchisiga – „Bilishni xohlayman” deb yoziladi.

So'ngra o'qituvchi o'quvchilardan mavzu yuzasidan qanday ma'lumotlarga ega ekanliklarini so'raydi va bildirgan fikrlarini „Bilaman” nomli ustunga yozib qo'yiladi. Keyingi bosqichda o'quvchilar mavzuga oid matn bilan tanishib chiqqandan so'ng, fikr yuritishadi hamda mavzuga oid yana qanday ma'lumotlarni o'zlashtirganliklarini „Bilib oldim” nomli ustunga yozib boriladi. So'nggi bosqichda o'qituvchi o'quvchilardan yangi mavzu bo'yicha qanday ma'lumotlarni o'zlashtirish istagida ekanliklarini so'raladi va bildirilgan fikrlar „Bilishni xohlayman” ustunuga yoziladi.

Natijada o'quvchilarning o'tilgan mavzularni yodga olishiga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishiga va o'z-o'zini baholashga erishiladi.

„Zig-zag” metodi. Sinf o'quvchilari guruhlariga bo'linadilar. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlariga topshiriladi.

O'quvchilar matnlarni diqqat bilan o'rganadilar va gapirib beradilar. Barcha guruhlarining o'quvchilari o'zlariga topshirilgan matn mazmunini so'zlab berganlaridan so'ng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan o'rganib chiqilgach, o'quvchilar o'tilgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligini aniqlaydilar.

Natijada o'quvchilarda dars jarayonida matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodda saqlab olish, so'zlab bera olish, fikrni erkin bayon eta olish ko'nikmasi rivojlanadi.

„T – chizma” metodi . „T – chizma” munozara vaqtida qo'shaloq javoblar (ha/yo'q, tarafdor/qarshi) yoki taqqoslash, zid javoblarni yozish uchun universal grafik-organayzer hisoblanadi. Masalan, qish fasli haqidagi matn o'qilgandan so'ng, o'quvchilar T – chizmani chizib, uning chap tomoniga qish faslining afzalliklarini berilgan vaqt davomida ko'rsatib berishadi, so'ngra shuncha vaqt ichida bu fikrga qarshi bo'lgan fikrlarni, qish faslining salbiy tomonlarini ko'rsatib berishadi.

Natijada o'quvchilarda tanqidiy mushohada rivojlanadi, shaxs, narsa yoki hodisalarning ijobiy hamda salbiy tomonlari yoritiladi, munosabat shakllanadi, bilimlar mustahkamlanadi.

„Birgalikda o'qiyamiz” metodi. Sinf o'quvchilari 3-5 kishidan iborat guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarni to'liq bajarishi natijasida o'quv materialining yaxlit o'zlashtirilishiga erishiladi. Mazkur metodning asosiy prinsiplari: o'quvchilarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni vujudga keltirish.

Natijada hamkorlikda ishlash ko'nikmasi hosil qilinadi, birgalikda bajarishning mohiyatini anglash, do'stona munosabat, bir-biriga yordam berish va jamoada ishlash shakllantiriladi.

„Insert” strategiyasi metodi. Insert – o'quv jarayonida o'quvchilarning olgan bilimlarini mustaqil tahlil qilish va anglash imkoniyatini beradigan

vositadir. Metodning maqsadi – o'quvchilarni matni oxirigacha o'qib, mazmunini anglab, qayta hikoya qilishga o'rgatish. Metodning vazifasi – faol bo'lmagan o'quvchilarni darsga qatnashishlarini ta'minlash hamda qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish.

O'quvchi matni „Insert” strategiyasi metodidan o'rganilganda quyidagi jadvaldan „Oltin kuz” mavzusida foydalanish mumkin:

| „V” | „+” | „-” | „?” |
|---|---|---|--------------------------------------|
| Bilganlarimni tasdiqlaydi | Yangi axborot | Bilganlarimga zid keladi | Meni o'ylantirib qo'ydi |
| „Oltin kuz” deb atalishini bilaman. Chunki kuz faslida tabiat oltin tusga kiradi. | Tuyoqli jonivorlar haqida ma'lumotga ega bo'ldim. | Ko'kqarg'alar ham issiq o'lkalarga uchib ketar ekan | Tuyoqli jonivorlarga nimalar kiradi? |

„Charxpalak” metodi. „Charxpalak” metodi o'quvchilarni o'tilgan mavzularni yodga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'z-o'zini to'g'ri baholashga o'rgatish hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini aniqlashga qaratilgan. Metodning maqsadi – o'tilgan mavzularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash, bilim, ko'nikma va malakalarni yanada mustahkamlash. Metodning vazifasi – o'quvchilarning ijodiy fikrlash, hozirjavoblik, yakka va guruhlarda ishlashga o'rgatadi, shuningdek, kerakli fikrlarni tanlay olish ko'nikmasini rivojlantiradi.

„FSMU” metodi. FSMU – 4 bosqichli yozilgan qog'oz varaqlari tarqatadi, yakka tartibda qo'llaniladi. O'zlashtirilgan bilimlar asosida tashkil qilinadi va har bir o'quvchi 4 bosqich asosida fikr-mulohaza yuritadi.

Bunda:

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.

M – ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol ko'rsating.

U – fikringizni umumlashtiring.

Metodning maqsadi – o'quvchilar mashg'ulotda o'rganilayotgan mavzuning muhokamasi jarayonida unga doir masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bayon qilish, shu fikrlarni asoslovchi sabablar ko'rsatish, ularni tasdiqlovchi misollar keltirish va umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishga o'rgatish.

Metodning vazifasi – o'quvchilarni erkin fikrlash, o'z fikrini himoya qilish, boshqalarga fikrini o'tkazish, ochiq holda bahslashish va bahs-munozara madaniyatiga o'rgatadi.

„Arra” metodi. Mazkur metodga ko'ra kichik guruh 4-5 o'quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a'zolari yangi mavzu yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydilar. Guruh ichida o'quvchilar rivoyat matnini qismlarga ajratib bo'lib oladilar. Har bir o'quvchi o'ziga tegishli qismini puxta o'zlashtirib „mutaxassis”ga aylanadilar.

Ma'lum vaqtdan so'ng har bir kichik guruhdagi „mutaxassislar” uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o'tkaziladi. Shu tarzda rivoyat mazmunini barcha o'quvchilar o'zlashtirib oladilar.

Metodning maqsadi – o'quvchilarda muloqatlashuv, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Metodning vazifasi – o'quvchilarni guruh bilan ishlash, guruh a'zolariga o'z fikrini tushuntirib, isbotlashga o'rgatish.

„O'z o'rnini top” metodi. Mavzu bo'yicha bahs-munozarali vaziyatlarda muammoning yechimini topishga yo'naltirilgan. Bunda o'quvchilar o'z fikrini bayon qilishi, muloqot ko'nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi va dars so'ngida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

Metodning maqsadi – o'quvchilarda o'z fikrini bayon qilish, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Metodning vazifasi – o'quvchilarni muammoli vaziyatlar orqali mustaqil tarzda o'z fikrlarini isbotlashga o'rgatiladi.

„Ikki qismli kundalik” metodi. „Ikki qismli kundalik” pedagogik uslub bo'lib, yozma nutqni rivojlantiradi. Bu uslub o'qib chiqilgan mavzu bo'yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog'lashga imkon beradi.

1-bosqich. O'quvchilar ertakni juftlikda navbat bilan past ovozda o'qiydilar.

2-bosqich. Hamma ertakni o'qib bo'lganiga ishonch hosil qilib, daftarning vertikal chiziq bilan ikkiga bo'lish so'raladi.

3-bosqich. O'quvchilarga daftarning chap tomoniga muallif fikrlarini yoqqanlarini (yoki yoqmaganlarini) yozishlari aytiladi.

4-bosqich. O'ng tomonga o'quvchi mazkur fikrga berilgan o'zining izohini yozadi, ya'ni o'qilgan ertak haqidagi tushunchani umumlashtirib beradi.

5-bosqich. Topshiriqning shu qismi tugagandan keyin o'quvchilarga (o'z xohishiga ko'ra) ularga yozilgan izohni o'qish taklif etiladi. Fikrlar va ularning izohlari o'qilayotganda savol berish yoki mazkur fikrga o'z izohini berish ruxsat etiladi.

6-bosqich. O'quvchilar sherik (uchliklar yoki kichik guruhlar) bo'lib ham ishlashlari mumkin.

Metodning maqsadi – o'rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg'otish, yozma nutqni rivojlantirish.

Metodning vazifasi – o'quvchilarning matn ustida mustaqil ishlash, mavzudan kerakli xulosa chiqarish malakasi shakllanadi.

„Blits-so'rov” metodi. Bu metod bir necha bosqichda o'tkaziladi.

1-bosqich. O'qituvchi ushbu metodni bir necha bosqichda o'tkazilishi haqida o'quvchilarga tushuncha beradi. Har bir bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi, o'quvchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi;

- o'qituvchi o'quvchilar guruhiga alohida-alohida tarqatma materiallar beradi va o'quvchilardan ushbu materialni sinchiklab o'rganishlarini so'raydi;

- o'qituvchi tarqatma materiallar mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi, ya'ni tarqatma materialda berilgan 13 ta harakatning ketma-ketligini

to'g'ri belgilash kerakligi, belgini esa qog'ozdagi alohida ajratilgan bo'limga raqamlar bilan belgilash kerakligini tushuntiradi;

- qo'yilgan vazifa avval yakka tartibda bajarilishini aytadi.

2-bosqich. O'qituvchi birinchi berilgan vazifani har bir o'quvchi tomonidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi, qiynalganlarga yordam beradi yoki qaytadan tushuntiradi;

- har bir o'quvchi tarqatma materialidagi „Yakka baho“ bo'limiga shu yerda berilgan harakatlardan o'zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi, ya'ni berilgan 13 harakatdan, uning fikricha qaysi biri birinchi bo'lishi, qaysi biri esa ikkinchi bo'lishi va hokazo. Bu vazifani bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilarga 10 daqiqa vaqt bera

3-bosqich. O'qituvchi o'quvchilardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishini so'raydi. 3 kishilik guruhlar o'quvchilarning xohishlariga qarab yoki raqamlar bo'yicha tashkil etilishi mumkin;

- kichik guruhdagi o'quvchilarning har biri o'z qog'ozidagi yakka baho bo'limida belgilangan harakatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, keyin 3 kishidan 3 xil bo'lgan ketma-ketlikni birgalashib, bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, bir-birlariga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirib, kelishgan holda bir fikrga kelib, ularga tarqatilgan qog'ozdagi „Guruh bahosi“ bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar;

- o'qituvchi kichik guruhdagi tortishuvlarda ishtirok etmaydi, faqat kichik guruhlar va har bir o'quvchi faoliyatini kuzatadi. Bu vazifa uchun 20 daqiqa vaqt beriladi

4-bosqich. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, o'qituvchi harakatlar ketma-ketligi bo'yicha to'g'ri javobni beradi. Ya'ni o'quvchilardan ularga tarqatilgan qog'ozlardan „To'g'ri javob“ bo'limini topishni va unga o'qituvchi tomonidan aytilgan harakatlar ketma-ketligining raqamlarini yozishni so'raydi.

5-bosqich. O'qituvchi „To'g'ri javob“ bo'limida berilgan raqamlardan „Yakka baho“ bo'limida berilgan raqamlarni, ya'ni kattadan kichikni ayirgan

holda „Yakka xato” bo'limiga chiqqan farqni yozishni so'raydi. „Yakka baho” bo'limidagi sonlarni yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqib umumiysini hisoblashlari kerakligini uqtiradi.

6-bosqich. Xuddi shu tartibda „To'g'ri javob” va „Guruhlar bahosi” o'rtasidagi farq kattadan kichikni ayirish orqali bajariladi, chiqarilgan farqlar soni „Guruhlar xatosi” bo'limiga yozilib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy son keltirib chiqariladi.

7-bosqich. O'qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo'yicha tushuncha beradi, ularni alohida-alohida sharhlab beradi.

„Yakka xato” bo'limidagi umumiy sonlarning sharhi:

- agar yakka xatolar soni 30 gacha bo'lsa, bunday o'quvchilarda tashkilotchilik, konstruktiv qobiliyat yetarli, ular mustaqil ravishda har bir ishni tashkil eta oladilar, turli sharoitlardagi harakatlar vaqtida mantiqan ularning ketma-ketligini tashkil eta oladilar;

- agar yakka xatolar soni 30 dan 40 gacha bo'lsa, bunday o'quvchilarda tashkilotchilik qobiliyati yetarli emas, biron-bir ishni yoki faoliyatni tashkil etishda qiynaladilar, pala-partishlikka yo'l qo'yadilar. Shuning uchun ular alohida kurslarda o'qishlari yoki mantiqan fikrlashga o'rganishlari kerak;

- agar xatolar soni 40 dan yuqori bo'lsa, bunday bolalarda tashkilotchilik, mantiqiy fikrlash qobiliyati yetarli emas, ular o'z ustilarida ishlashlari kerak bo'ladi yoki maxsus treninglarda o'qishlariga to'g'ri keladi.

„Guruh xatosi” bo'limidagi umumiy sonlarning sharhi:

- agar xatolar soni 30 gacha bo'lsa, bu guruhdagi o'quvchilar bir-birlarini tushunishga harakat qilganlar, bir-birlarini ishontira olganlar va natijada bir xil natijaga erishganlar. Demak, guruhda samimiy munosabat o'rnatilgan, fikrlar bir joydan chiqqan.

- agar xatolar soni 30 dan 40 gacha bo'lsa, o'quvchilarning bir xulosaga kelishlari qiyin bo'lgan, tortishuvlar yuzaki yoki o'quvchilar bir-birini tushunishga sust holda intilganlar, guruhning barcha a'zolari yuzaki

kelishganlar-u, aslida har kim o'z fikrida qolgan bo'lishi mumkin. Samimiy munosabat bu guruhda o'z aksini topmagan;

- agar xatolar soni 40 dan yuqori bo'lsa, guruhdagilar umuman bir-birlari bilan kelisha olmaganlar, o'zaro ishontirish bo'lmagan. Har kim o'z fikrida qolgan, samimiy munosabat o'rnatilmagan.

Quyidagi dars ishlanmada texnologik xaritadan va metodlardan foydalanilgan.

| |
|--|
| Mavzu: „Hunarsiz kishi o'limga yaqin”. 2-qism. |
| Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Podshoh, kabobchi, zindon, gilam. |
| Soatlar soni: 1 soat. |
| Mavzuning qisqacha ta'rifi: Podshoh hunari tufayli o'limdan qutulib qoladi. |
| O'quv jarayoning texnologiyasi: |
| Dars turi: yangi tushuncha va bilimlarni shakllantiruvchi dars. |
| Metod: suhbat, tushuntirish, hikoya, savol-javob, „Sinkveyn”, o'yinlar: „Kim topqir”, „Tez javob”; „Harfdan gapgacha mashqlari”. |
| Shakl: guruhda, yakka tartibda ishlash. |
| Jihoz: turli kasb egalari va ish qurollari tasvirlangan rasmlar, multimedia ilovasi |
| Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. |
| Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi. |

| |
|--|
| Darsning maqsad va vazifalari |
| Maqsadlar: |
| Ta'limiy: o'quvchilarni ertak mazmuni bilan tanishtirib, ifodali va sidirg'a o'qishga, o'qigan asari yuzasidan o'z fikrlarini og'zaki tarzda izchil ifodalashga o'rgatish. |
| TK 2: ertak asosida yaratilgan multimedia ilovalariga munosabat bildirish. |
| FK 1: ertakni ongli, ifodali o'qiy olish. |

Tarbiyaviy: o'quvchilarning hunar egallashga ishtiyoqini, kasb tanlashga qiziqishini oshirish, ularda turli kasb egalariga hurmat, o'zgarlar mehnatini qadriga yetish tuyg'ularini tarbiyalash.

TK 4: yaxshi odatlarga rioya qilish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning o'qigan asarlari yuzasidan savol-topshiriq tuzish,

Asar mazmuni va voqealari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash, test yechish malakalarini rivojlantirish.

FK 2: o'rganilgan ertakning qahramonlarini ajrata olish.

| Dars jarayoni va texnologiyasi | | | |
|------------------------------------|---|---|--|
| Dars bosqichlari va ishning nomi | Bajariladigan ish mazmuni | Metod | Vaqt |
| 1-bosqich Tashkiliy qism | O'quvchilar davomati aniqlanadi, ularning darsga tayyorligi tekshiriladi. | Savol-javob | 2 daqiqa |
| 2-bosqich Ehtiyojlarni aniqlash | Dars shiori tanlanadi, „Oltin qoidalar” aytiladi. | Suhbat | 2 daqiqa |
| 3-bosqich Darsning borishi | O'tgan darsni so'rab baholash, o'qish malakalarini tekshirish. “Kim topqir” o'yini, Ertakni o'qishga taygarlik. Ertakni 2-qismi asosida Animatsiya namoyishi. Lug'at ishi. Ertak mazmuni yuzasidan | Savol-javob, Izlanish, Suhbat, Namoyish, Tushuntirish Savol-javob, “Sinkveyn” usuli | 4 daqiqa 5 daqiqa 1 daqiqa 3 daqiqa 2 daqiqa 4 daqiqa 5 daqiqa |

| | | | |
|--------------------------------------|--|--|----------------------------------|
| | savol-javob o'tkazish Berigan mavzu bo'yicha bir necha so'z orqali matnni bayon qilish usuli bajariladi. | | |
| 4-bosqich Mustahkamlash | Qatorlararo musobaqa Darslik bilan ishlash O'quvchilarga yakunlovchi savollar bilan murojaat etiladi. Javoblar umumlashtiriladi. | “Tez javob” mashqi “Harfdan gapgacha” mashqi Savol-javob, Izlanish. | 5 daqiqa 5 daqiqa 4 daqiqa |
| 5-bosqich Dars yakuni va baholash | O'quvchilarning darsda ishtiroki Hisobga olinib, baholar e'lon qilinadi | Baholash | 2 daqiqa |
| 6-bosqich Uyga vazifa berish | Ertakni o'qib, mazmunini so'zlash, Ertak mazmuni asosida rasm chizish. | Tushuntirish | 1 daqiqa |

2.2. O'qish malakalari va ularni takomillashtirish usullari

Dastur talablarini to'liq bajarish va amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, o'qish ko'nikmalarini to'g'ri va puxta egallash, takomillashtirib borish zarur. O'qish ko'nikmalari savod o'rgatish jarayonida shakllanadi, o'qitishning keyingi bosqichida takomillashadi.

O'qish malakalari deganda badiiy asar matnini to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish tushuniladi. O'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalari shakllanadi va takomillashtiriladi.

O'qish malakasining sifatlari o'zaro bog'liq bo'lib, ularning asosi **ongli o'qish** hisoblanadi. O'quvchi matnni tez va to'g'ri o'qisa-yu, anglab o'qimasa yoki uning tez o'qishi natijada boshqalar matn mazmunini tushunmasa, to'g'ri o'qisa-yu, o'ta sekin o'qisa, nutq birliklari orasida to'xtamlarga e'tibor bermasa, matnda ifoda etilayotgan fikr tushinilmaydi. Muayyan tezlikda va to'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi. To'g'ri, tez, ongli o'qish esa ifodali o'qishning asosi hisoblanadi.

O'qish malakasini egallash maktabda o'qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. O'qish faoliyatning asosiy turi bo'lib, o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va mantiqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat beradi. Bu jarayon esa o'qish malakalarini oshirish va takomillashtirish ustida tizimli va muvofiq ishlarni talab qiladi.

O'qish malakasini egallash ancha murakkab bo'lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi. Ruhshunos olim T.G.Yegorov o'zining „Очерки психологии обучения детей чтению“ nomli asarida o'qish malakalarini shakllantirish jarayonini 3 bosqichga ajratadi: analitik bosqich, sintetik bosqich va avtomatlashgan bosqich. **Analitik bosqich** savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi, bunda so'zni bo'g'in-harf tomonidan tahlil qilish va bo'g'inlab o'qish malakasi shakllantiriladi. **Sintetik bosqich** uchun so'zni sidirg'a o'qish xarakterlidir; bunda so'zni ko'rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so'z ma'nosini anglash bilan asosan mos keladi. O'qish so'z ma'nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O'quvchilar sintetik bosqichga 3-sinfda o'tadilar. Bundan keyingi yillarda o'qish avtomatlasha boradi.

O'qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etishi kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o'qish malakalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lsin.

To'g'ri o'qish. To'g'ri o'qish deganda xato qilmasdan, yanglishmasdan o'qish tushiniladi, ya'ni to'g'ri o'qish so'zning tovush-harf tarkibini, grammatik shakllarini buzmasdan, so'zdagi tovush yoki bo'g'inni tushirib qoldirmay, boshqa harfni qo'shmay, harflar o'rnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, so'zga urg'uni to'g'ri qo'yib o'qish hisoblanadi. M.Odilova va T.Ashrapovalar „Adabiy talaffuz me'yorlariga qo'yilgan barcha talablar to'g'ri o'qish ko'nikmasiga ham taalluqlidir” – deb ta'kidlaydilar. Rus metodisti Yakovleva to'g'ri o'qishga quyidagicha ta'rif bergan: „To'g'ri o'qish – bu materialning tovush tomonidan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko'chirishdir”. Demak, to'g'ri o'qish so'zning tovush tarkibini, grammatik shaklini o'zgartirmasdan adabiy-orfoepik me'yorlar asosida o'qishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrok etish, talaffuz qilish va matn mazmunini tushinish o'rtasida puxta sintez yo'q bo'lgani uchun ular o'qishda xatoga yo'l qo'yadilar. Bu esa matn mazmunini tushinishni qiyinlashtiradi.

To'g'ri o'qish so'zning uzun-qisqaligiga, o'quvchining so'z boyligiga, ya'ni so'zning leksik ma'nosini qanchalik bilishiga hamda so'zning bo'g'in va morfemik tarkibiga bog'liq. O'quvchilar ko'pincha quyidagi sabablarga ko'ra xatolarga yo'l qo'yadilar:

- So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushinish o'rtasida puxta sintez bo'lmagani uchun bola so'zning oldin tovush tomonini ko'radi, uni talaffuz qilishga oshiqadi. So'zning ma'nosini esa e'tibordan chetda qoldiradi.

- So'z ko'p bo'g'inli bo'lib, bola uni oldin eshitmagan bo'lsa, xatoga yo'l qo'yadi.

- So'zning ma'nosini bilmaslik tufayli xatoga yo'l qo'yadi.

- Tez o'qiyman deb xatoga yo'l qo'yadi.

- To'g'ri o'qish yorug'likka va yorug'likning tushishiga ham bog'liq.

- Undosh tovush so'zning o'rtasida va oxirida kelgan yopiq bo'g'inli so'zlarni o'qishda qiynaladilar.

Xato o'qishning oldini olish uchun quyidagilar e'tiborga olinadi:

1. Matnni o'qitishdan oldin undagi o'qilishi qiyin so'z, birikma va gaplarni aniqlash va ular ustida ishlash usullarini belgilab olish. Tuzilishi murakkab so'zlarni bo'g'inlab o'qilishini mashq qildirish.

2. Matnni o'qishdan oldin uning mazmunini tushunishni qiyinlashtiradigan so'zlarni lug'aviy ma'nosini tushuntirish. So'z ma'nosini izohlash usullarini aniqlash.

3. Vazifalarni aniq va tushunarli qilib berish.

4. Matnni diqqat e'tibor bilan o'qishlari uchun sharoit yaratish.

5. Oldin ichda o'qitish, so'ng ovoz chiqarib o'qitish.

6. O'qitishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ya'ni matnni oson, o'rtacha qiyinlikda va qiyin o'qiladigan o'rinlarni belgilab olib, unga kuchi yetadigan o'quvchilarga oldindan taqsimlab berish.

7. O'quvchilarning o'qishini muntazam tekshirib turish.

8. Xatoning harakteriga qarab, uni metodik tomondan to'g'ri tuzatish yo'lini aniqlash.

9. O'quvchilarni xato qilish mumkin bo'lgan o'rinda ogohlantirib turish.

10. Xatcho'pdan foydalanish.

11. Xato o'qish o'quvchining shaxsiy ko'ruv sezgisiga bog'liq bo'lsa, bu jihatni ham hisobga olish.

O'quvchining tuzilishi murakkab bo'lgan so'zlarni oldindan xattaxtaga yoki kartonga bo'g'inlarga bo'lib yozib qo'yib, o'quvchilarga birgalikda o'qitishi yaxshi natija beradi.

O'quvchilar yo'l qo'ygan xato 2 xil yo'l bilan tuzatiladi:

1. O'quvchi so'z oxiridagi qo'shimchani noto'g'ri o'qisa, uni o'qishdan to'xtatmasdan xatoni to'g'irlash mumkin.

2. Xato o'qish bilan gaplarning mazmuni buzilsa, qayta o'qitish usulidan foydalaniladi. Bunda o'quvchiga o'qigan matni yuzasidan savol berilsa, o'quvchi e'tiborli bo'lib qayta o'qiydi.

Tez o'qish. Tez o'qish me'yoriy tezlikda o'qish bo'lib, bunda o'qish sur'ati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. O'qish

tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o'sib borish lozim. O'qilayotgan asar mazmunini o'zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta'minlaydigan o'qish **tez o'qish** deyildi.

O'qish sifatlarini yaxshi o'zlashtirgan holda o'quvchilarning o'qish sur'ati bir-biridan farq qildi. Bu dastur talablarini bajarmadi, degan gap emas. Og'zaki nutq tempiga to'g'ri keldigan o'qish sur'ati normal tezlik hisoblanadi. Chunki o'ta tez ham, o'ta sekin o'qish ham matn mazmunini o'zlashtirishni qiyinlashtiradi.

O'qish tezligi bir daqiqada o'qiladigan so'zlar soni bilan belgilanadi. 2005-yilda e'lon qilingan o'qish dasturida 1-sinfning 2-yarim yilligida o'qish sur'ati 20-25 so'z (notanish matnni o'qish tezligi ham 20-25 so'z); o'quv yili oxirida 25-30 so'z; 2-sinfning 1-yarim yilligida matnni o'qish tezligi 30-35 so'z; 2-yarim yilligida 40-50 so'z; 3-sinfning 1-yarim yilligida 60-70 so'z; 2-yarim yilligida 70-80 so'z; 4-sinfning 1-yarim yilligida ichda ovozsiz 110-130 so'z; ovozli o'qishda 90-100 so'z deb belgilangan.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, 1 daqiqada bola 250 so'zli matnni o'qisa, undagi 200 ta so'zni eslab qolar ekan. Agar harflab, bo'g'inlab o'qisa, uning diqqat markazida so'z emas, bo'g'in bo'ladi. Natijada u so'zlarni eslab qola olmaydi. Bu 4-sinf o'quvchilarining o'qish tezligiga tatbiq etilsa, 125 so'zdan 100 so'zni eslab qoladi. Bu esa yuqori ko'rsatkichlarga erishish imkonini beradi. 4-sinfda 1 daqiqada 170-180 ta so'zni o'qiydigan o'quvchilar ham bor.

O'qish tezligi 4 yil davomida to'g'ri va ongli o'qish bilan bog'liq holda asta ortib boradi. O'qish tezligini tekshirganda o'qituvchi o'qiladigan materialning harakterini, ya'ni g'oyaviy-mavzuiy murakkabligini, so'z va gaplarning tuzilishini, ularning bolalar nutqida qay darajada ishlatilishini, o'qishning to'g'ri va ongli bo'lishini hisobga oladi. O'quvchilarning o'qish tezligi har xil bo'ladi, albatta. O'qituvchining vazifasi barcha o'quvchilarning o'qish tezligini, iloji boricha bir xillikka keltirishdan iborat. O'qish sur'atini oshirishda tez aytishlarni, maqollarni yod oldirish va matnni ovoz chiqarib o'qishni mashq qilish kabilar samarali usullardan hisoblanadi.

Ongli o'qish. Ongli o'qish yaxshi o'qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o'qish o'qilgan matnning aniq mazmunini, asarning g'oyaviy yo'nalishini, obrazlarini va badiiy vositalarning rolini tushinib o'qish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga o'z munosabatini ifodalay olishdir. Ongli o'qish o'z navbatida, o'quvchilarning zarur hayotiy tajribasiga, so'zning leksik ma'nosini, gapda so'zlarning bog'lanishini tushinishga va bir qator metodik shartlarga bog'liq. Hozirda ongli o'qish atamasi adabiyotlarda va maktab tajribasida 2 ma'noda: birinchidan, o'qish jarayonini egallashga nisbatan o'qish texnikasi ma'nosida, ikkinchidan, keng ma'nodagi o'qishga nisbatan o'qish sifatlarini biri ma'nosida qo'llanadi.

Matnni ongli o'qish uchun o'quvchilar to'g'ri, me'yorida o'qishni egallaydigan bo'lishlari va o'qish jarayonida qiynalmasligi talab etiladi. O'quvchilar matnni ongli o'qishlari uchun matn mazmuni va badiiy vositalari jihatidan tahlil qilinadi.

Ongli o'qishning muhim sharti asar qurilishi va mazmunini tushunish hisoblanadi. O'qituvchi ongli o'qishni matnni ifodali o'qishga (agar ovoz chiqarib o'qilsa) va asar mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javobning to'g'riligiga, asar voqealari va qahramonlarining xatti-harakatiga bildirgan munosabatiga qarab baholaydi. Ongli o'qish va ifodali o'qish bir-birini taqazo qiladi, ammo bir-biriga aynan o'xshamaydigan sifatlaridir.

Ifodali o'qish. Ifodali o'qish intonatsiya – ohang yordamida asarning g'oyasi va jozibasini to'g'ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. „Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy shaklidir“, – deb ta'kidlaydi metodist olim M.A.Ribnikova. Demak, „Ifodali o'qishning asosiy vazifasi asarning mazmunini va emotsionalligini intonatsiya orqali o'quvchilarga ko'rgazmali qilib ko'rsatishdir. Ifodali o'qishning asosiy tamoyili o'qiladigan asar g'oyasi va badiiy qimmatini chuqur tushuntirishdir“.

Intonatsiya (ohang). Intonatsiya og'zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg'u, nutq tempi va ritmi, pauza, ovozning past-

balandligining yig'indisidir. Bu elementlar bir-biriga ta'sir etadi va hammasi birgalikda asarning mazmunini, g'oyasini, qahramonlarning turli kayfiyatini, ichki kechinmalarini ifodalaydi.

O'quvchi ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat:

1. Nutq jarayonida nafasni to'g'ri olish va to'g'ri taqsimlay bilish.
2. Har bir tovushning to'g'ri artikulyatsiyasi va aniq diksiya (burro gapirish) malakasini egallash.
3. Adabiy talaffuz me'yorlarini egallash.

Bu shartlar faqat ifodali o'qishgagina emas, balki ifodali nutqqa, ya'ni hikoya qilishga ham taalluqlidir. O'quvchining har qanday og'zaki hikoyasi ifodali bo'lishi zarur.

Ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri **ovoz**dir. Ovoz nafas bilan uzviy bog'lanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o'z nafasini boshqara olish va ovozdan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Oquvchilar matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o'qishga, nutqda tez, o'rtacha yoki sekin tempni tanlashga, biror tuyg'uni ifodalashga o'rganadilar. Ifodali o'qishga o'rgatishda o'quvchilar pauza va logik urg'u bilan ham tanishtiriladi.

Ifodali o'qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo'linadi:

1. Asarning aniq mazmunini tushunish va unda qatnashgan shaxslarni xatti-harakatini tahlil qilish, asarning g'oyasini belgilash, ya'ni asarning g'oyaviy-mavzuviy asosini, uning obrazlarini badiiy vositalar bilan yaxlit holda tushinish.
2. Matnni qaysi joyda to'xtam (pauza) qilishni, mantiqiy urg'uni o'rnini, o'qish tempini belgilab olish.
3. O'qishni mashq qilish, muallif fikrini uning tasvirlangan voqea-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatini ovoz bilan ifodalay olishi uchun matnni qayta o'qish.

Asarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishini tahlil qilish ifodali o'qishga o'rgatish bilan bog'lab olib boriladi. Ifodali o'qishni o'rgatishda matn mazmunini tushinish, muallif hikoya qilgan voqealarga o'z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O'quvchilarda ifodali o'qish malakasini shakllantirish uchun asarni o'qituvchining ifodali o'qishi muhim ahamiyatga ega.

2.3. O'qish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish.

Ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'liq holda o'stiriladi. Darsda o'tilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo'llanadi. O'qilgan asarni analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar. O'qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o'quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o'qituvchi ularni asarda qatnashish tartibda aytishni so'raydi. Natijada o'qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O'qituvchi bergan savollar yordamida asarlarning mazmuni aniqlanadi.

Shunday qilib, asar mazmuni bilan birinchi tanishish o'quvchilardan ongli ishlashni, voqealarni, qatnashuvchilar tarkibini tahlil qilishni talab etadi. O'qish bilan bog'liq holda bajariladigan bunday mantiqiy ishlar asta-sekin murakkablasha boradi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilar nutqining o'sish darajasi to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealarning bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar sujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilar asar mazmunini unda ishtirok

etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakati qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarning izchil bayon qilinishiga va o'zaro bog'liqligini yoritishga yo'naltirilishi lozim.

O'quvchi o'qilgan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi: ayrim lavhalar o'zaro bog'lanadi (sintezlanadi), bir-biriga taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi.

Ko'pincha boshlang'ich sinf o'quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba'zan noto'g'ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham o'qituvchi savolni juda o'ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o'ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog'lanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni o'zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo'lishi lozim. O'quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko'z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

O'qilgan asar mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalash uning rejasini tuzishda yordam beradi. Reja tuzishda o'quvchi hikoyani tarkibiy qismlarga bo'ladi va har qaysi qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analitik ish hisoblanadi. Keyin sintetik ishga o'tiladi, ya'ni bolalar hikoya qismlariga sarlavha topadilar. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida reja tuzish jarayonida o'qilgan hikoyaning har bir qismida bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratligi haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida o'ylaydilar. Sarlavha topish ustida ishlash, o'quvchilar topgan sarlavhani jamoaviy muhokama qilish, reja tuzish jarayonining o'zi bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda o'z mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim.

Rejani xattaxtaga yozish va reja asosida qayta hikoyalash o'qituvchi savoliga javob berishga nisbatan asar mazmunini aytib berishning xiyla mustaqil shaklidir.

O'qilgan asar mazmunini o'zlashtirish ustida ishlashdagi keyingi bosqich qisqartirib hikoyalash hisoblanadi. Qisqartirib hikoyalash uchun 2-3 qismga bo'linadigan, bu bo'limlar yaqqol ajralib turadigan, mazmuni sodda asarlar tanlanadi. Qisqartirib hikoyalashga o'rgatish quydagicha uyushtiriladi: o'qituvchi hikoyaning oldindan belgilab qo'ygan qismini o'qiydi va o'quvchilar bilan birgalikda eng muhim, asosiy fikr aniqlanadi. Bunda o'quvchilar ba'zan asardagi so'zlardan foydalanadilar. Bu o'quvchilarga qiyinlik qilsa, bo'limdagi asosiy fikrni o'z so'zlari bilan aytib berishlari mumkin. Keyin o'quvchilar o'qituvchi bilan bu qismni qisqartirib hikoyalashda nimalar haqida gapirmaslik kerakligini, qaysilar 2-darajali yoki kam ahamiyatli fikr ekanini aniqlaydilar. Asarning boshqa qismlari yuzasidan ham shunday ish olib boriladi va o'quvchilar asarni qisqartirib qayta hikoya qiladilar. O'qilgan asarni qisqartirib hikoya qilishga 2-sinfdan boshlab o'rgatiladi.

Tanlab hikoyalash ham bolalarning tafakkuri va nutqini o'stirish vositalaridan biridir. Tanlab hikoyalashda o'quvchi :

- ✓ O'qilgan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravishda ajratib so'zlab beradi;
- ✓ Hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi;
- ✓ Hikoya mazmunini faqat bir sujet asosida so'zlab beradi.
- ✓ O'quvchilarda tanlab hikoya qilish malakasini hosil qilishga boshlang'ich sinf izohli o'qish darslarida keng qo'llaniladigan metodik usullar yordam beradi:
- ✓ Hikoya qismiga chizilgan rasm asosida hikoyalash;
- ✓ Hikoyadagi bir voqeani tasvirlovchi rasm asosida hikoyalash;
- ✓ Tanlab qayta hikoyalashni talab etadigan savollarga javob berish.

O'quvchi tanlab hikoya qilishga tayyorlanganda o'qilgan matni tahlil qiladi, bunday tahlil bolalar tafakkurini, ular nutqidagi mustaqillikni o'stiradi va o'qilgan matn mazmunini o'zlashtirishga yordam beradi.

Hikoyani o'qish bilan bog'liq holda o'tkaziladigan ijodiy ishlar ham o'quvchilar nutqini, tafakkurini o'stiradi. Bular:

- Ijodiy qayta hikoyalash;
- Inssenirovka qilish;
- O'qilgan asarga rasm chizish;
- Hikoyani davom ettirish.

Ijodiy qayta hikoyalashda o'qilgan hikoyaning sharoiti yoki shaklini o'zgartirib hikoya qilinadi. Bunda hikoyani yangi epizodlar bilan to'ldirib qayta hikoya qilish ham mumkin.

Inssenirovka yoki sahnalashtirishda o'quvchilar o'qilgan hikoyani sahnabop qilib o'zgartiradilar. Buning uchun ular hikoyaga ssenariy haqida, kiyim-kechaklari, qatnashuvchilarning imo-ishorasi haqida o'ylaydilar, monologik nutqni dialogik nutqqa aylantiradilar.

O'qilgan hikoyaga rasm chizishda o'quvchi rassomlar tomonidan o'qilgan asarning mazmuniga mos rasm tanlaydi yoki o'zi rasm chizadi. Agar o'quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, o'zi chizmoqchi bo'lgan rasmni og'zaki tasvirlab beradi, ya'ni so'z bilan chizadi.

O'qilgan hikoyani davom ettirish usuli maktab tajribasida keng qo'llaniladi. Bu usul hikoyaning mazmuni uni davom ettirishga imkon beradigan asarlarda qo'llaniladi.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'qish darslarida ham o'quvchilar nutqi va tafakkurining rivojlanishiga katta ahamiyat qaratiladi.

Nutq o'stirish bilan bolalarning tasavvur va tafakkur qilish faoliyatlari uzviy holda rivojlantiriladi:

- hikoya, ertaklarni so'zlab berishda, qahramonlar ovozigacha taqlid qila bilish;

- rasm va narsalarni taqqoslab tasvirlash, sayr, tomosha va o'yinlar haqida hikoya qilish, misollar keltirish, matnda tasvirlangan voqealar haqida xulosalar chiqarish;
- badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish, matnni qismlarga bo'lish, ular mazmuniga oid sarlavhalar topish, mazmuniga doir ijodiy rasmlar ishlash.



III BOB. PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI VOSITASIDA O'QISH DARSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.

3.1. O'qish darslarida uchraydigan asosiy muammo va kamchiliklar.

Hozirda innovatsion ta'lim klasterida ta'lim bo'g'inlarining o'zaro hamkorligi va integratsiya yaxshi bog'lanmaganligi sababli quyidagi muammo va kamchiliklar kelib chiqmoqda;

1. Ayrim maktabgacha tayyorlov muassasasiga bormagan o'quvchilar maktabga tashrifining ilk kunlardayoq har taraflama qiynala boshlaydilar, bolalarni 100% bog'chaga qamrab olish kerak;

2. Maktabgacha ta'lim muassasisining tayyorlov guruhiga mutaxassislarni maktab bilan hamkorlik qilgan holda maktab boshlang'ich sinf ilmiy bo'lim mudirining tanlovidan o'tkazib mashg'ulot o'tishga qo'yish lozim. Sababi, maktabgacha ta'lim va umumta'lim maktab metodikasi bir-biriga mos emas. Shu bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasasi tayyorlov guruhining bolalari maktabga chiqqunlariga qadar yil davomida umumta'lim muassasining boshlang'ich ta'lim kafedresi bilan uzviy hamkorlik qilish kerak, chunki maktabgacha ta'lim muassasining yozuv belgilari, harf unsurlari hamda metodik yo'nalishiga o'rganib bo'lgan bolalar maktabga chiqqanlaridan so'ng o'rganib bo'lgan yozuv shakllarini o'zgartirishga anchagina qiynaladilar. Bu boshlang'ich ta'lim o'qituvchisiga ham ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi;

3. Maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasasi boshlang'ich ta'lim kafedresi maktabga tayyorlov guruhi bolalari uchun hamkorlikda ish reja tuzib, yil davomida tajriba almashib turishlar lozim;

4. Mikrohududlar bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarini reja asosida o'zaro birlashtirish lozim;

5. Institut rahbariyati institut talabalariga umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf „Alifbe” va „O'qish” darslarini birinchi kursdan boshlab kuzatishlariga sharoitni ta'minlashi lozim, xuddi shu tarzda bolalar yaslga kelganlarining ilk kunlaridanoq maktabgacha ta'lim muassasasi bilan ham ishlashni yo'lga qo'yish lozim;

6. Institut talabalariga metodik fanlardan boshlang'ich sinf darsliklari bilan ishlash uchun ko'proq soat ajratilishi kerak va darsliklar bilan ishlashni mukammal o'rgatish kerak, metodik fanlardan ham keraksiz mavzularni chiqarib tashlash lozim;

7. XTB metodistlarining amaliy yordami;

8. Boshlang'ich ta'limning kuchli o'qituvchilarini institutlar bilan hamkorlikda ishlashlarini moliyaviy asosda yo'lga qo'yish kerak, ta'lim yangiliklarining amaliyotga tatbig'i yuzasidan o'zaro fikr almashish lozim;

9. Boshlang'ich sinf mavzulari hozirda davr talabiga qarab murakkablashib ketmoqda, shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalariga o'quv kurslari tashkil etish lozim:

a) o'qituvchi har chorakning boshida ota-onalar majlislarida chorak uchun mo'ljallangan mavzularning asosiy mazmunini tushuntirishi, ota-onalarga ham qayd etuv daftarlari yuritishi;

b) ota-onalarni haftalik mavzularning mazmuni yuzasidan haftaning bir kuniga bir soat vaqt belgilagan holda onlayn tarzda telegram kanallari orqali o'qitib boorish;

10. Institutning tajribali o'qituvchilari bilan ta'lim muassasalarining bitiruvchi sinflari o'quvchilari o'rtasida namunali uchrashuvlar tashkil qilishni yo'lga qo'yish kerak. Uchrashuvda o'quvchilarning DTM hamda institutga tayyorgarlik haqidagi barcha savollari hayotiy misollar asosida yoritilishi shart. Kerak bo'lsa ilm-fanning eng so'nggi yangiliklarini o'quvchilarga tegishli qismini elektron shaklini yetkazish lozim.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotdagi o'zgarishlar yangi davr talablari asosida ijodiy ishlaydigan tashabbuskor, tadbirkor, mohir va har tomonlama qobiliyat egasi bo'lgan kadrlar tayyorlashni taqozo etadi.

Bilimli, har tomonlama rivojlangan jamiyatni taraqqiy ettirishga qodir kadrlar yetishtirish ishiga maktabdayoq tamal toshi qo'yiladi. Ta'limga berilgan e'tibor – jamiyatga berilgan e'tibor. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonini taraqqiy ettirish va yuksaltirish ishlariga juda katta e'tibor qaratilmoqda.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida „Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy an'analari, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi”, – deb qayd etilgan. Shuningdek, pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va keng ommalashtirish zarurati alohida qayd etib o'tilgan. Shuning uchun ham „Sog'lom bola yili” Davlat dasturining 71-bandida boshlang'ich ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich ilg'or pedagogik va AKTni joriy etish masalasi bo'yicha alohida vazifalar belgilangan.

Yangiliklarni ta'lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifasidir. Demak, har bir o'qituvchi izlanishi, bugungi kun talablari asosida o'zini-o'zi tarbiyalashi, o'z ustida tinmay ishlashi, zamonaviy pedagogik va AKTni o'zlashtirishi va ta'lim jarayonida qo'llay olishi kerak.

Hozirda o'qish darslarida uchraydigan asosiy muammo va kamchiliklar quyidagi shakllardan iborat:

1. O'qituvchi tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklar;
2. O'quvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklar;
3. Ta'lim muassasasi tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklar;
4. Ota-onalar tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklar;
5. Darsliklar tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklar.

O'qituvchi tomonidan o'qish darslarida yo'l qo'yiladigan kamchiliklar quyidagilardan iborat:

1. Darsga puxta tayyorgarlik ko'rmaslik:
 - mavzularga chuqur yondoshmaslik;
 - multimedia ilovalarini qo'llashni bilmaslik;
 - dars davomida vaqtni noto'g'ri taqsimlash;
 - mavzuga mos metodlarni noto'g'ri tanlash;
 - dars etaplarini dars davomida almashtirib yuborish;

- o'qish malakalarini almashtirib yuborilishi;
- didaktik o'yinlardan maqsadga nomuvofiq foydalanish;
- o'quvchilarni kitobxonlikka yetarlicha unday olmaslik.

O'qituvchi dars loyihasini tayyorlar ekan, maqsadni oydinlashtirishi va shu maqsad asosida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatlarini shunday tashkil etishi lozimki, belgilangan maqsad to'liq amalga oshsin. Ta'lim jarayonini boshqarish o'qituvchilardan katta mahorat talab etadi. U dars algoritmidagi boshqaruv yo'llarini belgilab oladi. O'z faoliyati va o'quvchilar faoliyatini tashkil etish, o'quvchilar bilimni nazorat etish yo'llarini aniq ishlab chiqishi kerak. Ta'lim natijasini tekshirib, maqsadni nechog'lik amalga oshganini aniqlashi lozim. Keyingi dars loyihasini ishlashda tahlillar kiritib, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni bartaraf etishi lozim.

2. O'qituvchi o'quvchilar ruhiyatini tushunmasligi:

- o'qituvchi o'quvchilar jamoasining darsga ruhan tayyorlamaslik;
- ayrim kayfiyatsiz o'quvchilarni sezmaslik;
- dars davomida dam olish daqiqalarini vaqtida qo'llamaslik;
- ayrim kayfiyat bag'ishlovchi matnlarga bee'tiborlik qilish;
- o'quvchilar sog'lig'ini dars davomida nazardan qochirmaslik;
- ayrim o'qituvchilarni o'quvchilarni tabaqalashtirib muomala qilishi;

3. O'qituvchining AKT bilan ishlashni yaxshi bilmasligi:

- AKT bilan ishlashni yaxshi bilmasligi;
- dars davomida multimedia ilovalaridan noto'g'ri foydalanish;
- o'qituvchi mavzuga oid slaydlarni o'zi tayyorlay olmasligi;
- multimedia yarata olmaslik;

4. O'qituvchi sinf xonasini to'g'ri nazorat qila olmaslik:

- xona ozodaligiga e'tibor bermaslik;
- sinf haroratiga e'tiborsiz bo'lish;
- xona derazalaridan dars paytida ham vaziyatga qarab havo aylantirish;

5. O'qituvchining ko'rgazma-qurollar bilan noto'g'ri ishlashi:

- har bir dars uchun ko'rgazmalardan foydalanmaslik;

- ko'rgazmalarni joylashtirishda doskadan noto'g'ri foydalanish;
- tarqatma savollarning noo'rin tarqatilishi;
- metodlar uchun jadvallarning chalkashtirib yuborilishi:” T-chizma” va “Tushunchalar tahlili”;

6. O'qish darslarida o'quvchilar bilimini to'g'ri baholamaslik:

7. O'qituvchining nutqiy kamchiliklari. O'qituvchi o'z nutqida murakkab uzun jumlar yoki notanish qiyin iboralarni muntazam qo'llayvermasligi lozim. O'qituvchining samimiy mazmunli nutqi bolalarni o'ziga yaqinlashtiradi, darsga qiziqishlarini oshiradi.

O'qish darslarida o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklar:

- Darsga befarqligi; sabablari turli bo'lishi mumkin: oiladagi nosog'lom muhit, sog'ligi, qabul qilish qobiliyatining pastligi;
- Uy vazifalarini o'z vaqtida bajarmaslik;
- O'qish tezliginig me'yoriy emasligi;
- Ayrim o'quvchilar ijodkorligining pastligi;
- Dangasalik va vaqtning qadriga yetmaslik;
- Darsda olgan baholarini kundaliklariga qo'ydirmaslik.

Ta'lim muassasasi tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklar:

- Dars paytida noo'rin bezovta qilish;
- Topshiriqlarning haddan ziyod ko'pligi;
- Ta'lim muassasasining moddiy-ta'minot bazasining kamligi;
- O'qituvchini o'z vaqtida rag'batlantirmaslik.

Ota-onalar tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklar:

- Farzandlarini haddan ziyod ko'ngliga qarashi;
- Ta'lim muassasasi bilan yaqindan hamkorlik qilmaslik;
- Ota-onalar majlisiga qatnashmaslik;
- Uy vazifalarini vaqtida bajartirmaslik;
- Farzandini vaqtini ko'proq internetlarda o'tkazishiga yo'l qo'yib berish.

Darsliklar tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklar:

- „Alifbe” darsligida ayrim hollarda matnlarning o'quvchilar bilim salohiyatiga nisbatan birdaniga kengayib ketishi;
- „O'qish” darsliklarida bosh harf “I” va kichik harf “i” ning bosmacha yozuv ko'rinishi salkam bir xilligi o'quvchilarni judayam ko'p chalg'ishiga sabab bo'ladi;
- „Alifbe” va „O'qish” darsliklarini muqovasi yupqaligi;
- „O'qish” darsliklarida ayrim matnlarga multimedia ilovalarining yo'qligi;
- „O'qish” darsliklarida ayrim matnlarga multimediani qo'g'irchoq teatri sifatida sahnalashtirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi;
- „O'qish” darsliklarida hadislar va hikmatli so'zlarni kamligi.

3.2. O'qish darslarining samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar.

Pedagogik ta'lim klasterining har bir bo'g'inida uzviy bog'liqlik va uzluksizlik bo'lsa, muammo va kamchiliklarni yechimlariga tezroq barham beriladi. Ta'limning uzviylik va uzluksizlik prinsipiga e'tibor kuchli bo'lsa O'zbekiston ta'lim sohasida yuqori natijalarga erishadi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasterida ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar:

- Pedagogik ta'lim innovatsion klasterida o'zaro uzviy hamkorlik;
- Bo'lajak yosh pedagoglarni chuqur innovatsion bilimlarga ega holda xalq xizmatiga tayyorlash;
- Bo'lajak yosh pedagoglarga multimedia yaratishni mukammal o'rgatish;
- Talabalar amaliyotini 1-kursdan boshlab yo'lga qo'yish;
- Tahririyatlar sonini ko'paytirish va sifatini oshirish;
- Viloyat kesimida institut bilan umumta'lim maktablarini va maktabgacha ta'lim muassasalarini birlashtirish;
- Ota-onalar o'quv soatlarini tashkil etish;
- Ta'lim bo'g'inlari orasida maqsadli uchrashuvlarni tashkil qilish;

- Favqulodda vaziyatlarda ta'lim maskanlarining barcha shaxslarining “zanjir” asosida ishlash (tarbiyachi, o'qituvchi, ta'lim oluvchilar, rahbarlar, ota-onalar va boshqa shaxslar).

Hozirda amaliyotda ta'lim metodlari xilma-xil hamda ko'p sonli bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlatga, ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega, muayyan maqsadlarga, sharoitlarga mos ekanligi va boshqa sifatlari bilan birbiridan farqlanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bu metodlarning har biri muayyan ta'lim –tarbiyaviy maqsadlar uchun mos bo'lib, uning o'rniga boshqa metodni qo'llash maqsadga muvofiq emas. Chunki boshqa metod ushbu maqsad uchun mos emas ekanligi ma'lum.

Shu sababli ta'lim metodlarining qaysi biridan qaysi maqsad uchun foydalanish ko'zda tutilgan samarani berishini bilish muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni qo'llash o'qish darslari samaradorligini oshirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. **Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ularni boshlang'ich sinf o'qish darslarida to'g'ri qo'llash samaradorligi turli omillar bilan bog'liq.** Bu omillar quyidagilardir:

Birinchidan, o'qish darslarining maqsadlari va vazifalariga bog'liq;

Ikkinchidan, o'qish darslarida bayon qilinadigan materialning harakteriga bog'liq;

Uchinchidan, o'quvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog'liq;

To'rtinchidan, o'qish fani asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog'liq;

Beshinchidan, ta'lim muassasasining sharoitlariga bog'liq;

Oltinchidan, o'qish darsining moddiy-texnik ta'minoti bilan bog'liq;

Yettinchidan, o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o'qituvchining hozirgi zamon metodlari bo'yicha bilimlariga bog'liq.

O'qish darslarida samaradorlikni oshirishda o'qituvchilar quyidagi shartlarga rioya etishlari lozim:

- ta'lim jarayoniga sinfdagi barcha o'quvchilarni to'la qamrab olinishi;
- o'quv xonasining jihozlanishi;
- o'quvchilarning darslarga ruhan tayyorgarliklarini inobatga olinishi;
- topshiriqni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlarining topshiriqlarini muhokama qilish uchun vaqtning aniq belgilanishi.

O'qish darsida o'quvchilar tafakkurini o'stirish, mustaqil, jiddiy fikrlashga o'rgatish uchun foydalaniladigan metodik tavsiyalar.

O'qish darlarida ish turlari bo'yicha:

- o'qituvchi topshirig'i bo'yicha matnni to'liq o'qish;
 - matnni bo'laklarga bo'lish;
 - tayyor reja bo'yicha o'qish;
 - matnni o'qib, mazmunini hikoya qilish;
 - matnni tayyorgarlik ko'rgan o'quvchilar tomonidan o'qilishi;
 - matnni qisqartirib o'qish;
 - "Zanjirli o'qish";
 - xatboshilar bo'yicha o'qish;
 - yarim ovozda o'qish;
 - matnni rasmga bag'ishlangan qismini o'qish;
 - o'qituvchining savollariga matndan javob topib o'qish;
- tanlab o'qish;
- matndan eng chiroyli tasvirlangan bo'lakni o'qish;
 - gapning boshi yoki oxiridagi so'z asosida to'liq gapni topish;
 - me'yordagidan yuqori tezlikda o'qish;
 - matndan hikmatli so'z topishga yordam beradigan qismini topib o'qish;
 - xatoni tuzatishga yordam beradigan gapni o'qish;
 - matndagi bosh g'oyani bildiruvchi gapni topish;
 - ertak yoki masalni o'qiganda „nima haqiqatga yaqin, nima o'ylab topilgan“ mavzusida suhbat;
 - multimediyaga ssenariy tuzish;
 - maqol sifatida aytilgan gaplarni topish;

- matndan xulosalarni topish;
- fikr ayta olish;
- „Asardagi nima sizga yoqdi” mavzusida suhbat;
- o'qish yo'li bilan sababli bog'lanishlarni aniqlash;
- matnga o'z sarlavhangizni tanlang;
- rollarga bo'lib o'qish;
- dialoglarga bo'lib o'qish;
- qayta so'zlashda mimika, imo-ishoralardan foydalanish;
- „Jonli tasvirlar” o'yini; bir kishi o'qiydi, boshqasi eshitganlarini mimika yordamida takrorlaydi;
- matndagi har xil kayfiyatga xos qismlarni topish;
- matndagi diqqat bilan o'qishni talab qiladigan qismini topish;
- matndan undov, so'roq gaplarni topish;
- musobaqali o'qish;
- siymolarni ifodalovchi so'zlarni topish;
- urg'u berilganda so'zlar mantig'ini o'zgarishini kuzatish va o'qish; sekin,tez, baland o'qiladigan gap va so'zlarni aniqlash;
- she'rlarni bandlar bo'yicha o'qib, pauza bilan tugatish;
- ko'rsatilgan qoida bo'yicha kim tez topadi.
- eng uzun gapni topish;
- matnda 2 so'zli murakkab so'zlarni topish;
- tushunilmaydigan so'zlar ma'nosini aytib o'qish;
- matndan og'zaki portret uchun so'z va ifodalarni topish;
- xattaxtaga yozilgan so'zlar mazmuniga yaqin so'zlarni topish;
- iqtibos keltirilgan so'zlarni o'qish;
- insho yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan so'z va gaplarni topish;
- aralash o'qish;
- vaqtni hisobga olib o'qish;
- tez aytishni o'qish;

- matnni mantiqiy qismlarga bo'lib ifodali o'qish va qismlarning biridan ikkinchisiga navbat bilan o'tish;
- voqea yoki hodisani so'z yordamida tasvirlash;
- ijodiy qayta hikoya qilish:
- bosh shaxs nomidan,
- shaxsni o'zgartirib,
- vaqtni o'zgartirib,
- hikoyani voqea-hodisalar sodir bo'lishidan oldingi bo'lib o'tgan voqea-hodisalar yoki voqeaning davomi qanday bo'lishini qo'shib aytish;
- hikoyadan tashqaridagi voqealar tasvirini qo'shib aytish;
- matndan iqtiboslar keltirib, hikoyani aytish;
- bosh qahramonni tavsiflovchi savollar: U kim? Tashqi ko'rinishi. Topshirilgan ishni bajarishda odamlar bilan munosabat. Sizning qahramonga munosabatingiz;
- gapdan (xattaxtada yozilgan) to'g'ri javob, g'oya, asar sarlavhasini tanlang;
- maqolni to'ldiring;
- gapda o'rganilayotgan predmet harakatiga doir ko'proq so'zlarni toping (masalan, suv-oqadi, toshadi...);
- sarlavhaga qarab hikoya mavzusini aniqlang;
- rasmga qarab hikoya tuzing;
- biror bir qahramon nomidan ... mavzusida hikoya tuzish;
- she'rda yashiringan sirni toping.

O'quvchi estetik rivojlanish va o'qish madaniyatini shakllanishida ifodali o'qish jarayonidagi emotsional idrok katta ahamiyatga ega. Shuningdek, o'qish texnikasiga ham e'tibor qaratish zarur.

Matnni ifodali o'qishga tayyorlanish bo'yicha:

- Matnni diqqat bilan o'qing. Unda nima haqida aytilganini tushunishga harakat qiling;
- Mavzuni, asosiy g'oyani aytilish tonlarini aniqlang;

- Matnni nima maqsadda o'qishingiz va tinglovchini nimaga ishontirishingiz haqida o'ylang;
- Gapdagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar ma'nosini belgilang;
- Qayerda pauzalar bo'lishini belgilang;
- Og'zaki, ifodali nutqning yana qanday usullaridan foydalanishingizni o'ylang, masalan, nutq tempi, ovoz balandligi yoki pastligi.

Matn rejasini tuzish bo'yicha:

- Matnni o'qing, notanish so'zlar ma'nosini aniqlang;
- Matn mavzusini va asosiy mazmunini aniqlang;
- Matnni mazmuniga ko'ra qismlarga bo'ling va har biriga sarlavha qo'ying;
- Rejaning qoralamasini tayyorlang va uni matn bilan solishtiring. Qarang: rejangizda hamma muhim tomonlar o'z aksini topganmi? Reja punktlari, mazmuni bog'langanmi? Rejada mavzu va matnning asosiy mazmuni o'z aksini topganmi?
- Matnni qayta hikoyalashda shu rejadan foydalanish mumkinligini tekshiring;
- Rejani yaxshilab ko'chiring;

Hikoyaning rejasini tuzish bo'yicha:

- Hikoyaning hammasini o'qing. Uning qismlarini belgilang. Boshlanishi va tugashini qalam bilan belgilang. Hikoyani qanday qismlarga bo'ldingiz?
- 1-qismni o'qing, undagi bosh g'oyani qalam bilan belgilang va shu qismga sarlavha qo'ying;
- Shunday yo'l bilan boshqa qismlarga ham sarlavha qo'yishga harakat qiling. Rejani yozing. Reja muhim tomonlarni o'z ichiga olganiga, asosiy tomonlar qolib ketmaganligiga ishonch hosil qiling;
- Sarlavha qaytalanmayotganligiga ishonch hosil qiling, sarlavha hikoyani eslashga yordam beradimi?

Qisqacha qayta hikoyalashni tuzish bo'yicha:

- Hikoya rejasini tuzing. Rejani 1-punkti va birinchi qismidan uncha muhim bo'lmagan, faqat bosh g'oyani to'ldirishga xizmat qiladigan 2-3 gaplarni ajrating;
- Boshqa qismlar bilan ham ishni takrorlang;
- Rejaga qarab qisqacha hikoya qiling;
- Hikoyaning asosiy qismini e'tibordan chetda qoldirmasdan yanada qisqaroq aytish imkoniyatlarini qidiring.

Qahramonlar tavsifi bo'yicha reja:

1. Qahramon qanday ishlarni amalga oshirdi? Uning ishtirokidagi epizodlarni o'qing, uning xulqini e'tirof etuvchi lavhalar haqida hikoya qiling.
2. Qahramonning umumiy ko'rinishi qanaqa? Matndan uning tashqi ko'rinishi haqidagi qismini topib, o'z fikringiz bilan to'ldiring.
3. Qahramon qanday so'zlashadi? Matndan uning mulohazalarini topib o'qing, muallifning bergan ta'rifi.
4. Muallifning qahramonga bo'lgan munosabati? Muallifning bahosi berilgan qismlarni toping va o'qing.
5. Sizning qahramonga bo'lgan munosabatingiz qanday?

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'rganishning metodik modeli bo'yicha:

- Asosiy mazmunni aniqlash;
- Hikoyani bayon etuvchini ajratish; (hikoyani kim aytyapti, u hikoya voqealarining ishtirokchisimi?)
- Hikoya qahramonini aniqlash, uning harakati va bu harakatlarning sababini aniqlash;
- Qahramonlar xarakteridagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash;
- Hikoya qahramoniga muallifning munosabatini aniqlash, matndan shunga doir so'zlarni topish;
- Hikoya qahramonlariga o'quvchilarning shaxsiy munosabatlarini aniqlash;
- Asarning asosiy g'oyasini tushunish;
- Hikoya kompazitsiyasi ustida ishlash;

Boshlang'ich sinfda ertakni o'rganishning metodik modeli bo'yicha:

1. Aniq voqelikni aniqlash;
2. Ertak qahramonlari;
3. Ular rolining xususiyatlari;
4. Voqealarning izchilligi:
 - a) asosiy voqeaning xarakteri;
 - b) voqealarning ketma-ketligi;
5. Xulq motivlari;
6. Ertak qahramonlarining xarakterli xususiyatlari;
7. Ertak qahramonlarining o'zaro munosabatlari;
8. Ertak qahramonlari yoki ertakdagi ayrim epizodlarni o'ylagani bo'yicha og'zaki tavsiflash;
9. Ertakdagi asosiy g'oyani aniqlash;
10. Ertak qahramoniga yoki undagi voqea-hodisalarni o'quvchilarni shaxsiy munosabatini aniqlash;
11. Voqelik bo'lib o'tgan joy; (real voqelik yoki uydirma);
12. Ertak voqealarini badiiy ifodalash.

Boshlang'ich sinfda nazmiy materiallarni (she'rni o'rganish) o'rganishning metodik modeli bo'yicha:

- She'ring umumiy hayajonli qismlarini aniqlash;
- She'rdagi tabiat manzaralarini tasvirlashga doir joylarni topish;
- Qiziqarli obrazlar va aniq bo'rttirib ko'rsatilgan joylarni topish;
- Ta'sirli joylarini alohida ta'kidlovchi ovoz bilan o'qish;
- She'rdagi tasvirlangan jarayonni rasmda ifodalash;
- She'ring asosiy mazmunini aniqlash;
- She'rga o'quvchilarning munosabatini aniqlash;
- She'rdagi aytuvchi shaxsini aniqlash.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda o'qish fanini o'qitishning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va o'quv dasturlari asosida 1-4-sinf o'qituvchilari uchun

hamkorlik, didaktik o'yin texnologiyalari va integratsiyalashgan ta'lim mazmunini ochib berishga qaratilgan metodik qo'llanmalar yaratilgan. Qo'llanmalardagi multimedia ilovalari o'qitishning o'yinli shakllari va media texnikalar bilan ishlash, pedagogik texnologiyalardan o'rinli va mahorat bilan foydalanish o'quv jarayonida foydalanishning yuqori ko'rsatkichlariga erishish imkoniyatini yaratadi. Har bir boshlang'ch sinf o'qituvchisi mana shu metodik qo'llanmalar bilan yil boshida mukammal tanishib chiqishi hamda yil davomida undan oqilona foydalanishi o'qish darslarining samaradorligini oshiradi.



XULOSA

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki boyliklarni – bilimlarni o'rganish, o'zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu vazifani amalga oshirishning birdan-bir yo'li o'qituvchi ta'lim tizimi yangiliklarini tinmay o'rganish orqali yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. Zero, ilm olish yo'lidagi izlanish insonning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradi, ma'naviy-axloqiy kamolot sari yetaklaydi.

Maktab ta'lim-tarbiya maskani bo'lib, shaxsning kelajagi shu maskanda ta'lim-tarbiya tizimi qanday amalga oshirilishiga, o'qituvchining o'z burchi, vazifalariga qanday munosabatda bo'lishiga bog'liqdir. Barkamol insonni, avvalo, o'zi yashab turgan jamiyat, xalq uchun fidoyi shaxsni tarbiyalashga ham shu yerda zamin qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" kitobida "Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunar egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb masala hisoblanadi", – deb ta'kidlaydi. Shunday ekan, farzandlarimizni kelajagi birinchi navbatda o'z harakat-intilishlarida bo'lsa, ikkinchi navbatda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zimmasidadir. Sababi, bolalar ilk hayotiy tushunchalarni maktabda oladilar. Ta'lim muassasasidagi birinchi kundanoq bolalar uchun bir umrga esda qoluvchi „Alifbe“ darsligi bilan yuzlashadilar. Uning har bir sahifasi bolalarga bir olam quvonch keltiradi, ertaknamo hayotga olib kiradi. O'qituvchi esa bolaga harf o'rgatish bilan birga kitobdagi turli-tuman voqea-hodisalarga boy bo'lgan rasmlar ustida ishlashni boshlaydi. Mana shu davrda o'qituvchi rasmlarning tarbiyaviy tarafini atroflicha yoritib o'quvchilar qalbiga ziyo urug'larini ekishi lozim. Darslikda berilgan har bir matn o'quvchilarni fikrlash doiralarini o'stirish bilan birga, ularda tevarak-atrofaga munosabat, odob-axloq qoidalarini o'zlashtirish, insonparvar bo'lish, asardagi qahramonlar ishlariga taqlid qilish, ulardagi eng

yaxshi xislatlarni egallash, irodali, mehnatsevar, jasur vijdonli, mehribon bo'lish kabilarni o'zlashtirib borishga qaratilgan. „Alifbe”dan so'ng ular „O'qish” darsligi bilan tanishadilar. „O'qish” darsligidagi har bir matn, ertak, hikoya, rivoyat, masal, she'r, maqol, tez aytish, topishmoq va qiziqarli topshiriqlarni mazmunini ochishda, ularni hayotga tatbiq etishda o'quvchilar jamoasining bilimlarni qay darajada o'zlashtiruvchi muhim ahamiyat kasb etadi. Mohir, o'z ishining ustasi bo'lgan pedagogning o'quvchilari esa hayotda doim teran fikrlaydigan, hammadan bir qadam oldinda yuradigan, yangiliklardan cho'chimaydigan, chuqur o'y-mulohazali, o'z pozitsiyasiga ega shaxslar bo'lib voyaga yetadi.

„O'qish ” darslarining yana bir muhim vazifalaridan biri – o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagi nutqni muvaffaqiyatli o'stirishi mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat beriladi.

O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. O'qituvchi „O'qish” darslarida faqat orfoepik talaffuz va adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda ifodali, ta'sirli so'zlashi, shuningdek, har doim o'quvchi daftariga, barcha hujjatlarga husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u o'quvchilarda ongli va ifodali so'zlashga, to'g'ri va tez o'qishga o'rgatadi.

Ana shunday mohir o'qituvchi, xalq ardog'idagi pedagog doimo o'z ustida tinmay izlanadi, yangiliklarni ta'limga joriy etishdan cho'chimaydi, darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni, metodlarni o'rnida qo'llay biladi.

Jamiyat va ilm-fan tinimsiz taraqqiy etaveradi. Yangiliklar yaratilaveradi. Yangiliklarni ta'lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi kun o'qituvchisining vazifasidir. Bilimli, yuqori malakaga ega bo'lgan o'qituvchi

kadrlargina jamiyatning ta'lim oldiga qo'ygan vazifasini amalga oshirishga qodir bo'ladilar. O'qituvchining izlanishi, bugungi kun talablari asosida o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z ustida tinimsiz ishlashi, zamonaviy o'qish metodlarini o'zlashtirishi va ta'lim jarayonini qo'llay olishi ta'lim samaradorligini oshiradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida''gi Farmoni, 2017-yil 15-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Toshkent: „O'zbekiston'' NMIU, 2018.
3. Mirziyoyev Sh „Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz'' Toshkent: „O'zbekiston'' - 2016.
4. Mirziyoyev Sh „Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz'' Toshkent: „O'zbekiston'' - 2016.
5. Karimov I.A. „Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch''Toshkent: „Ma'naviyat'', 2008.
6. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida''gi Qonuni // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: „Sharq'' nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
7. O'zbekiston Respublikasining „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi''gi Qonuni // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: „Sharq'' nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1998.
8. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi // Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son.
9. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim). Toshkent, 2017.
10. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari (Ona tili, o'qish, matematika, atrofimizdagi olam va tabiatshunoslik), (1-4-sinflar). Toshkent, 2010.
11. Matchonov S., G'ulomova X. va boshqalar „Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish''. Toshkent: „Yangiyul Poligraph servise'', 2008.


12. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G`ulomova, Sh.Yo`ldosheva, Sh. Sariyev. „Ona tili o`qitish metodikasi”. Boshlang`ich ta`lim fakulteti talabalari uchun darslik. Toshkent „NOSIR” nashriyoti 2009.
13. R.Mavlonova, O.To`rayeva, K.Xoliqberdiyev. „Pedagogika”. „O`QITUVCHI” NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI. Toshkent -2008.
14. 1-sinf o`qituvchilari uchun ilg`or pedagogik va axborot-komunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo`yicha metodik qo`llanma. „SHARQ” NMAK Bosh tahririyati. Toshkent -2014.
15. T.G`afforova, X.G`ulomova „O`qish darslari”, 1-sinf o`qituvchilari uchun metodik qo`llanma. „TAFAKKUR” nashriyoti. Toshkent - 2011.
16. T.G`afforova, Sh.Nurillayeva. „2- sinf o`qituvchilari uchun metodik qo`llanma”. „SHARQ” NMAK Bosh tahririyati. Toshkent - 2012.
17. 2-sinf o`qituvchilari uchun ilg`or pedagogik va axborot-komunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo`yicha metodik qo`llanma. Toshkent „O`ZBEKISTON” 2015.
18. 3-sinf o`qituvchilari uchun ilg`or pedagogik va axborot-komunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo`yicha metodik qo`llanma. „SHARQ” NMAK Bosh tahririyati. Toshkent - 2016.
19. S.Matchonov, X.G`ulomova. „4-sinfda o`qish darslari”. O`qituvchi kitobi. Toshkent. „Yangiyul Poligraph servise”, 2007.
20. 4-sinf o`qituvchilari uchun ilg`or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo`yicha metodik qo`llanma. „SHARQ” NMAK Bosh tahririyati. Toshkent - 2017.
21. R.Safarova, M.Inoyatova, M.Shokirova, L. Shermamatova. „Alifbe”. Toshkent „Ma`naviyat” 2018.
22. T.G`afforova, E.Shodmonov, G.Eshurdiyeva. „O`qish kitobi”. 1-sinf uchun darslik. „SHARQ”. NMAK Bosh tahririyati. Toshkent – 2017.
23. T.G`afforova, Sh.Nurillayeva, Z.Mirzahakimova. „O`qish kitobi”. 2-sinf uchun darslik. „SHARQ” NMAK Bosh tahririyati. Toshkent - 2016.

24. M.Umarova, X.Hamroqulova, R.Tojiboyeva. „O`qish kitobi”. 3-sinf uchun darslik. „O`QITUVCHI” NMIU. Toshkent - 2016.

25. S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G`ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov. „O`qish kitobi”. 4-sinf uchun darslik. Toshkent. . „Yangiyul Poligraph servise” - 2011.






TALABALAR UCHUN ESLATMALAR:



Boshlang'ich sinf o'qish kitobi darsligi turli bo'limlardan iborat bo'lib, janr xususiyatlariga ko'ra dars turlari belgilanadi.








Sinkveyn mashqi:


- Sinkveyn frantsuzcha so'z bo'lib "besh" degan ma'noni bildiradi. o'quvchilarga darsni mustahkamlash bosqichida biror fizik kattalik, asbob, hodisa nomi, fizik olimni quyidagicha besh qatorli misraga solishni taklif etish lozim.
- Ot (1 so'z)
- Sifat (2 so'z)
- Fe'l (3 so'z)
- Iboralar (gap bilan ta'rifi beriladi)
- Sinonim (1 so'z yoziladi, otga yozilgan so'z bilan ma'nosi bir xil bo'lsin).

Venn diagrammasi bo'yicha o'quv topshirig'ini bajaring



“SINKVEYN” METODI

| 1-guruh | 2-guruh | 3-guruh |
|---|---------------------------------------|---------------------------------|
| 1.Tabiat | 1.Inson | 1.Qish |
| 2.Go‘zal, chiroyli, ko‘m-ko‘k | 2.Odobli, yaxshi, kamtar | 2.Sovuq, izg‘irin, yaxmalak |
| 3.Yashnaydi, gullaydi, jilolanadi | 3.Tug‘iladi, ishlaydi, vafot etadi | 3.Yaxlaydi, muzlaydi, qotadi |
| 4.Tabiat, qanday go‘zal | 4.Inson naqadar ulug‘ zot | 4.Oh! qanday chiroyli qor |
| 5.Olam | 5.Odam | 5.Qor |



Mundarija

| | |
|--|----|
| Kirish | 3 |
| I BOB. O'QISH DARSLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI | 6 |
| 1.1. Milliy pedagogikamizda o'qish darslarining tashkil qilishning o'rganilishi. | 6 |
| 1.2. O'qish darslarining maqsadi va vazifalari..... | 9 |
| 1.3. Hozirgi zamonda o'qish darslariga qo'yiladigan talablar..... | 13 |
| II BOB. O'QISH DARSLARI O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA | 16 |
| 2.1. O'qish darslarida qo'llaniladigan metodlar..... | 16 |
| 2.2. O'qish malakalari va ularni takomillashtirish usullari..... | 33 |
| 2.3. O'qish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish..... | 40 |
| III BOB. PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI VOSITASIDA O'QISH DARSLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 45 |
| 3.1. O'qish darslarida uchraydigan asosiy muammo va kamchiliklar. | 45 |
| 3.2. O'qish darslarining samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar..... | 50 |
| Xulosa | 59 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati | 62 |
| Talabalar uchun eslatmalar | 65 |

